

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI
RIVOJLANISHINING HOZIRGI
HOLATI VA TENDENTSIYALARI**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent-2026

Mazkur ishchi o'quv dastur Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: **M.N.Musayev** - texnika fanlari nomzodi, professor.

O.T. Xasanova - dosent.

Taqrizchilar: Sh.M.Narziyev – PhD., tf.f.d., professor.

S.S. Shamansurov - texnika fanlari nomzodi, professor.

O'quv-uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2025-yil 29-yanvardagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I.	Ishchi dastur	
II.	Modulni o'qitishda foydalaniladigan intrefaol ta'lim metodlari	
III.	Nazariy materiallar	
IV.	Amaliy mashg'ulot materiallari	
V.	Keyslar banki	
VI.	Testlar	
VII.	Glossariy	
VIII.	Adabiyotlar ro'yxati	

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o'zaro tan olishga, o'qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqish belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari, kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti, ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, farmonlar, qarorlar hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar qo'llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta'lim va tarbiya jarayonlarini sub'ektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo'llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o'rganilmagan. Bu holatlar oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini hayot faoliyati xavfsizligining zamonaviy tendensiyalari, ilmiy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, loyihalarni tahlil qilish va qaror qabul qilish asoslari, ishlab chiqarishdagi ish joylari va zonalarini optimal loyihalash, zamonaviy jihozlarini hamda innovatsion texnologiyalar boshqarish paytida mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararli va shikastlovchi salbiy omillarini identifikatsiyalash hamda baholash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- mamlakatimizda hayot faoliyati xavfsizligini rivojlanishining strategik masalalari va istiqbollarini o'rganish;
- hayot faoliyati xavfsizligida ilmiy tadqiqot uchun boy raqobatbardosh xavfsiz texnologiyalarni tahlil qilish;
- ishlab chiqarish sohalarida xavfsizlikga doir ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun zamonaviy tadqiqot yo'nalishlarini o'rganish;
- ishlab chiqarishda hayot faoliyati xavfsizligidagi taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalarini va innovatsion yechimlarini rejalashtirish;
- "Hayot faoliyati xavfsizligi rivojlanishining hozirgi holati va tendentsiyalari" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integrasiyasini ta'minlash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

"Hayot faoliyati xavfsizligi rivojlanishining hozirgi holati va tendentsiyalari" modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Hayot faoliyati xavfsizligining zamonaviy tendensiyalarini va yangiliklarini;
- mehnatni muhofaza qilish xizmatini sifatini ta'minlashning zamonaviy va innovatsion usullarini;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida innovatsiyalar va ilg'or texnologiyalarni;

- mamlakatimizda va jahonda mehnat muhofazasisini rivojlanish yo‘nalishlari, strategiyasi masalalari va istiqbollari haqidagi zamonaviy **bilimlarga ega bo‘lishi**;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida xavfsizlikni ta‘minlashning zamonaviy usullaridan foydalanish;
- ish joylari va zonalarida texnologik jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
- zararli va shikastlovchi ishlab chiqarish omillarini inson hayoti va sog‘lig‘iga salbiy ta‘sirini bartaraf etishga oid zamonaviy texnik yechimlar ishlab chiqish **ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi**;
- inson hayoti va sog‘lig‘iga salbiy ta‘sirini bartaraf etishga oid zamonaviy texnik yechimlarni amalga tadbiiq etish;
- innovatsion va ilg‘or texnologiyalarni amaliyotga ongli tatbiq etish
- sohadagi ilg‘or xalqaro tajribalardan oqilona foydalanishga o‘rgatish malakasini shakllantirish **kompetensiyalarini egalashi lozim**.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Hayot faoliyati xavfsizligi rivojlanishining hozirgi holati va tendentsiyalari” moduli ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma‘ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta‘lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Hayot faoliyati xavfsizligi rivojlanishining hozirgi holati va tendentsiyalari” moduli o‘quv rejadagi quyidagi fanlar bilan bog‘liq: Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo‘yicha), “Hayotiy faoliyat xavfsizligi”, “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi” va “Yong‘in xavfsizligini ta‘minlash asoslari”.

Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni

“Hayot faoliyati xavfsizligi rivojlanishining hozirgi holati va tendentsiyalari” modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar mehnat muhofazasi bilan bog‘liq masalalarni zamonaviy talablar darajasida hal etish usullarini, sohadagi ilg‘or xalqaro tajribalardan oqilona foydalanishga o‘rgatish malakasini shakllantirishga, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladigan mutaxassislarni tayyorlash oliy ta‘limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul tarkibi	Hammasi	Auditoriyadagi o‘quv yuklamasi					Mustakil ta’lim
			Jami	Jumladan:				
				Nazariy	Amaliy	mashg‘ulot	Mustakil	
1.	Hayot xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy-me’yoriy hujjatlardagi o‘zgarishlar.	4	4	2	2			
2.	Iqtisodiyot tarmoqlarida xavflarni baholash. Redagogik kasbiy faoliyatda, ishlab chiqarish jarayonlarida amalga oshiriladigan zamonaviy texnologiyalar, mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararli omillarini identifikatsiyalash hamda baholashni o‘rgatish va kasbiy mahoratini oshirish; xavfsizlik bo‘yicha xalqaro tashkilotlar to‘g‘risida.	4	4	2	2			
3.	Texnik tizimlardan foydalanishda texnik tizimlarga xavfsizlik talablarini ishlab chiqish. HFX ta’minlash mexanizmi - insonlarning bexatar yashashi va ishlashini xalqaro miqyosda ta’minlash: mehnat faoliyati xavfsizligi; fuqarolar xavfsizligi; favqulodda vaziyatlar xavfsizligi. Kioto Protokoli va Parij kelishuvi haqida.	4	4	2	2			
4.	Texnosfera xavf-xatarlardan himoya qilishning yangi usullari. Korxonalarda xavf-xatarlarga qarshi texnik qurilmalarning zamonaviy turlari. Raqamli texnologiyalar tahlili va ularning imkoniyatlari (kiberxavfsizlik).	10	6	2	4	6		
Hammasi		24	18	8	10	6		

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Hayot xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi o'zgarishlar.

Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy qonunlar, standartlar, nizomlar, qoidalar va me'yoriy hujjatlar tizimining taxlili (4 soat).

2-mavzu: Iqtisodiyot tarmoqlarida xavflarni baholash.

Redagogik kasbiy faoliyatda, ishlab chiqarish jarayonlarida amalga oshiriladigan zamonaviy texnologiyalar orqali mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararli omillarini identifikatsiyalash hamda baholashni o'rgatish va kasbiy mahoratini oshirish; xavfsizlik bo'yicha xalqaro tashkilotlar hamda O'zbekiston Respublikasining Xalqaro xavfsizlik hamkorligida tutgan o'rni. (4 soat).

3-mavzu: Texnik tizimlardan xavfsiz foydalanishda zamonaviy texnik yechimlarni amalga tadbiq etish.

HFX ta'minlash mexanizmi - insonlarning bexatar yashashi va ishlashini xalqaro miqyosda ta'minlash: mehnat faoliyati xavfsizligi; fuqarolar xavfsizligi; favqulodda vaziyatlar xavfsizligi. "Yashil xudud" ga o'tish jarayoni ajratilayotgan investitsiya dinamikasi. (2 soat).

4-mavzu: Texnosfera xavf-xatarlardan himoya qilishning yangi usullari.

Korxonalarda xavf-xatarlarga qarshi texnik qurilmalarning zamonaviy turlari. Sanoat korxonalarini xavf-xatarlardan himoyalashning zamonaviy usullari. Raqamli texnologiyalar tahlili va ularning imkoniyatlari (kiberxavfsizlik) (2 soat).

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1- amaliy mashg'ulot: Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy qonunlar, standartlar, nizomlar, qoidalar va me'yoriy hujjatlar tizimining zamonaviy pedagogik texnologiya usullari orqali taxlili (Tushunchalar daraxti, Insert va b.) (2 soat).

2-amaliy mashg'ulot: HFX ta'minlash mexanizmi - insonlarning bexatar yashashi va ishlashini xalqaro miqyosda ta'minlashning zamonaviy pedagogik texnologiya usullari orqali tahlili (Sabablar daraxti, FSMU va b.) (2 soat).

3-amaliy mashg'ulot: Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil qilish, xavfsizlikni ta'minlanishi zamonaviy pedagogik texnologiya usullari orqali taxlili («BBB», FSMU va b.) (2 soat).

4-amaliy mashg'ulot: Iqtisod tarmoqlaridagi mavjud xavf-xatarlardan himoyalashning zamonaviy pedagogik texnologiya usullari orqali taxlili (Kaskad , Klaster va b.). (2 soat).

5-amaliy mashg'ulot: Zamonaviy shaxsiy va jamoa himoya vositalaridan oqilona foydalanishning zamonaviy pedagogik texnologiya usullari orqali tahlili (Baliq skeleti, FSMU va b.) (2 soat).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:
Modulni o‘qitish jarayonida quyidagi ta’limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruza;
- amaliy mashg‘ulot.

O‘quv ishini tashkil etish usuliga ko‘ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press. Germaniya, 2007.
2. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./ Darslik. –T.: “Tafakkur qanoti”, 2015. – 336 b.
3. E.I. Ibragimov, S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.
4. Yuldashev O.R., Djabborova Sh.G., Xasanova O.T. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik–T.:“Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
5. Хамидуллаев Ф.Ф., Шамансуров С.С., Шадиева К.И. Правовые и организационные основы охраны труда. –Т.:, 2022. – 287 с.
6. Tursunov Y., Usmanova M. Mehnat huquqi. Darslik - Toshkent, “Moliya”, 2006, 227-b.
7. A’zamov A., va boshqalar. Mehnatni muhofazasi qilish./ O‘quv qo‘llanma. –T.: “Sano-standart”, 2013. – 232 b.
8. Narziyev Sh.M., Kurbonov Sh.X. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma–T.:“Yangi nashr”, 2019.– 234 b.
9. Петросова Л.И. Охрана труда. Учебник. –Т.:, 2022. –385 с.
10. Charles D. Reese. Occupational Safety and Health Fundamental Principles and Philosophies. CRC Press. 2017.
11. Петросова Л.И. Охрана труда и техника безопасности по отраслям. Учебник. -Т.: 2023. 230 с.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2014. – 46 b.
2. “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (yangi taxriri) O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.
3. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori № 286, 06.06.1997, –T.: 1997.

4. “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qonun. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 , 37-38-son.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори “Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2018 йил 31 декабрь, 1066-сон.

6. Петросова Л.И. Охрана труда. Учебно- методическое пособие. ТашГТУ. 2020. 180 с.

IV. Internet saytlar:

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.mintrud.uz – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
4. www.bilim.uz – OUMTV sayti.

O‘QITISH SHAKLLARI

Ta’limni tashkil etish shakllari aniq o‘quv material mazmuni ustida ishlayotganda o‘qituvchini tinglovchilar bilan o‘zaro harakatini tartiblashtirishni, yo‘lga qo‘yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o‘qitish jarayonida quyidagi ta’limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruza;
- amaliy mashg‘ulot;
- mustaqil ta’lim.

O‘quv ishini tashkil etish usuliga ko‘ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

Jamoaviy ishlash – Bunda o‘qituvchi guruhlarining bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv maqsadiga erishish uchun o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

Guruhlarda ishlash – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (2 tadan – 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o‘ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish shaklidir. O‘qitish metodiga ko‘ra guruhni kichik guruhlar, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo‘lish mumkin. Bir turdagi guruhli ish o‘quv guruhlari uchun bir turdagi topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

Yakka tartibdagi shaklda – har bir ta’lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTER FAOL TA’LIM METODLARI

«SWOT-tahlil» metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

«Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi

ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари түширилган тарқатма



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва

«Keys-stadi» metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

«Keys metodi» ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash

3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

Φ	• фикрингизни баён этинг
С	• фикрингизни баёнига сабаб кўрсатинг
М	• кўрсатган сабабингизни исботлаб мисол келтиринг
У	• фикрингизни умумлаштиринг

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

«Assesment» metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

«Assesment» lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

«Tushunchalar tahlili» metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. *Metodni amalga oshirish tartibi:*

ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

«Venn diagrammasi» metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: HAYOT XAVFSIZLIGI SOHASIDAGI NORMATIV-HUQUQIY-ME'YORIY HUJJATLARDAGI O'ZGARISHLAR.

Reja:

1. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy qonunlar, standartlar;
2. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy nizomlar, qoidalar va meyoriy hujjatlar.

Nazariy qism

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Respublika (30.04.2023) fuqarolari sog'ligini muhofaza qilish huquqiga ega. Konstitutsiya asosiy qonun. Insonning hayoti, yashashga bo'lgan huquqi Konstitutsiya bilan muhofaza qilinadi. Har qanday mustaqil davlat singari O'zbekiston o'z xavfsizligini ta'minlash muhim masala ekanligini hech qachon unutmaydi. Davlat o'z xavfsizligini ta'minlash bilan xalq xavfsizligini o'ylaydi.

O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi 1995 yil 21 dekabrda qabul qilindi va u 1996 yil aprel oyidan boshlab amalda kuchga kirdi. Ushbu kodeksda ko'rsatilishicha xavfsizlik texnikasiga, ishlab chiqarish sanitariyasiga, yong'in chiqishidan saqlanishga va mehnat muhofazasining boshqa qoidalariga rioya etish yuzasidan ishchi va xizmatchilarga yo'l-yo'riqlar berish, shuningdek, xodimlarning mehnat muhofazasiga doir qo'llanmalarda ko'rsatilgan hamma talablarga amal qilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish ma'muriyat zimmasiga yuklanadi.

"Mehnatni muxofaza qilish tug'risida" (6.05.1993y, 22.09.2016y) bu konun ishlovchilarning mexnatini v sog'ligini ta'minlashga, ishlab chikarish usulidan va mulkchilik shaklidan kat'iy nazar mexnat muxofazasini tashkillashtirishning yagona tartibini urnatishga karatilgan.

Bu borada, yalpi safarbarlik bilan tashkilotlarda mehnat xavfsizligiga doir barcha qaror va hujjatlarni tahlil qilish, kelgusida mehnat xavfsizligi darajasini ko'tarish, ish yuritishda texnika xavfsizligi mashg'ulotlarini o'tkazish, mehnat muhofazasi ishlarini tashkil etish, o'quv yurtlari o'qituvchilari, talabalari, xizmatchi va ishchilari o'rtasida shikastlanishning oldini olish hamda davlat standarti masalalari talablariga rioya etish maqsadida «Mehnatni muhofaz qilish to'g'risida» Qonunning qabul qilinganligi maqsadga muvofiq bo'lib, bu sohadagi barcha chora-tadbirlar aynan qonun asosida talabetiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **1996 yil 11 apreldagi 143-sonli** «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi qarori. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risidagi Nizom va uning tuzilmasi to'g'risida so'z yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining **1997 yil 23 dekabrda 558-sonli** «O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va

harakat qilish davlat tizimi (FVDT) to'g'risida»gi qarori. FVDT boshqaruv organlari, Respublika va mahalliy hokimiyat organlarini, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlarda himoya qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiradigan korxonalar va muassasalarning kuch va vositalarini birlashtiradi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xavfsizligini atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tinchlik va harbiy davrda davlat iqtisodiyotiga zararni kamaytirishni ta'minlashga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **1998 yil 27 oktyabrdagi 455- sonli** «Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tavsifi to'g'risida»gi qarori.

Qarorda O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha favqulodda vaziyatlar kelib chiqish xarakteriga va o'lchamlariga ko'ra tasniflab berilgan. SHu qarorlardan kelib chiqqan holda alablarga muvofiq fuqarolarni favqulodda vaziya yuz berganda sarosimaga va tushkunlikka tushmaslikk, aniq tadbirlarni bajarishda dadil, qat'iy hatti harakatlar qilishga ruhan, ma'nan, jismonan va moddiy jihatdan tayyorlab borish bizning doimiy va insoniylik burchimiz ekanligini unutmasligimiz kerakligini uqtirib o'tdilar.

«Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonun favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Qonun 5 ta bo'lim va 27 moddadan iborat bo'lib, ular mantiqan aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish muammolarining mohiyatini ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqaro muxofazasi to'g'risida» gi qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi. Qonun 5 bo'lim va 23 moddadan iborat.. Qonunning 16 va 18-moddalarida umumta'lim maktablari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o'rgatish va fuqaro muhofazasi sohasi bo'yicha o'qitish umumiy va majburiydir, deb ta'kidlangan.

«Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunning asosiy maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyexashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, rekonstruksiya qilish xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.

«Radiasiyaviy xavfsizlik to'g'risida» gi qonun alohida o'rin tutadi. Ushbu qonunning maqsadi radiasiyaviy xavfsizlikni fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulki, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu qonun 5 bo'lim va 28 moddadan iborat bo'lib, ularda asosiy tushunchalarga ta'rif berilgan, radiasiyaviy xavfsizlikni tartibga solish, radiasiyaviy xavfsizlikni ta'minlashga quyiladigan talablar, radiasiyaviy avariya sodir bo'lganda

radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan. «Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashga doir talablar» III bo'limda (12-22-moddalar) keltirilgan.

«Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunni Respublikamiz hukumati aholi xavfsizligini ta'minlash uchun 2000 yil 15 dekabrda qabul qildi. Oxirgi vaqtlarda yuzaga kelgan ayrim vaziyatlar Respublikamiz hududida terroristik aktlar ham sodir bo'lishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Qonun davlat organlarining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari, terrorchilikka qarshi operatsiyaning o'tkazilishi, terrorchilik harakati oqibatida yetkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiya hamda terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan shaxslarning huquqiy va ijtimoiy muhofazasi masalalarini o'z ichiga oladi.

«Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida» gi qonunning maqsadi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Standartlar, nizomlar, qoidalar va meyoriy hujjatlar. Mexnatni muxofaza qilish buyicha konunlarni rivojlantirish uchun davlat kumitalari, vazirliklar va muassasalar xar xil me'yoriy xujjatlarni markaziy kasaba uyushmalari bilan kelishilgan xolda ishlab chikishadi va amalga tadbik qilishadi. Qo'llanish soxaiga karab mexnat muxofazasi me'yor va koidalari umumiylarga va tarmokiylarga bulinadi. Umumiy me'yor va koidalar xalk xujaligining xamma tarmoklari uchun bir xil bulgan eng zarur Mexnat muxofazasi talablarini belgilaydi, masalan: QMQ, SHNQ; SanQvaN O'zR; EUQ (PEU)va x.k. Tarmoqiy me'yor va qoidalar xalq xo'jaligining ma'lum bir tarmog'ida qo'llaniladi va shu tarmoqqa xos bo'lgan mehnat muhofazasi talablarini o'z ichiga oladi.

Tayanch so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, mexnatni muxofaza qilish, standart, metrologiya, favqulodda vaziyatlar, fuqaro muhofazasi, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlar, yong'in xavfsizligi, nizomlar, qoidalar.

Nazorat savollari

1. Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asosini nimalar tashkil etadi?
2. Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha huquqiy va me'yoriy hujjatlarning umumiy turlariga nimalar kiradi?
3. Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaning qaysi moddalarida keltirib o'tilgan?
4. «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilingan va uning bo'limlarida qanday fikrlar keltirilgan?
5. Qomusimizning qaysi moddalari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish asosini tashkil etadi?
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida Fuqarolar muhofazasi masalalari qanday o'rin egallaydi?

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan aholi xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qanday qonunlar qabul qilingan?
8. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish qonunini mohiyatini tushuntiring?
9. «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonunga qanday vazifalar, huquqiy asoslar, vakolatlar, huquq va majburiyatlar to'g'risida so'zboradi.
10. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi vakolati, huquqlari nimalardan iborat?
11. «O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi» to'g'risidagi qaror mohiyati nimadan iborat.
12. Muhofaza masalalariga qaratilgan qanday qonunlar mavjud?
13. Fuqaro muhofazasi to'g'risidagi qonunning asosiy maqsadi nimadan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar va axborot resurslari

1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press. Germaniya, 2007.
2. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./ Darslik. –T.: “Tafakkur qanoti”, 2015. – 336 b.
3. E.I. Ibragimov, S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.
4. Yuldashev O.R., Djabborova Sh.G., Xasanova O.T. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik–T.:“Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
5. Хамидуллаев Ф.Ф., Шамансуров С.С., Шадиева К.И. Правовые и организационные основы охраны труда. –Т.:, 2022. – 287 с.
6. Tursunov Y., Usmanova M. Mehnat huquqi. Darslik - Toshkent, “Moliya”, 2006, 227-b.
7. A'zamov A., va boshqalar. Mehnatni muhofazasi qilish./ O'quv qo'llanma. –T.: “Sano-standart”, 2013. – 232 b.
8. Narziyev Sh.M., Kurbonov Sh.X. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma–T.:“Yangi nashr”, 2019.– 234 b.
9. Петросова Л.И. Охрана труда. Учебник. –Т.:, 2022. –385 с.
10. Charles D. Reese. Occupational Safety and Health Fundamental Principles and Philosophies. CRC Press. 2017.
11. Петросова Л.И. Охрана труда и техника безопасности по отраслям. Учебник. -Т.: 2023. 230 с.

12. III. Maxsus adabiyotlar:

13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. – 46 b.
13. “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi (yangi taxriri) O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.

14. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori № 286, 06.06.1997, –T.: 1997.

15. “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida”gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 , 37-38-son.

16. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори “Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2018 йил 31 декабрь, 1066-сон.

17. Петросова Л.И. Охрана труда. Учебно- методическое пособие. ТашГТУ. 2020. 180 с.

18. IV. Internet saytlar:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.mintrud.uz – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
- www.bilim.uz – OUMTV sayti.

2-mavzu: IQTISODIYOT TARMOQLARIDA XAVFLARNI BAHOLASH.

Reja:

1. Redagogik kasbiy faoliyatda, ishlab chiqarish jarayonlarida amalga oshiriladigan zamonaviy texnologiyalar orqali mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararli omillarini identifikatsiyalash hamda baholashni o'rgatish va kasbiy mahoratini oshirish;;
2. Xavfsizlik bo'yicha xalqaro tashkilotlar hamda O'zbekiston Respublikasining Xalqaro xavfsizlik hamkorligida tutgan o'rni.

Tayanch so'zlar: davlat hokimiyati, organlari, birlashmalari, tashkilotlari, jamoat birlashmal, vakolatlai, funksiyalar, metodlari

Nazariy qism

HFX davlat boshqaruvi – fuqarolarni bexatar yashash darajasini ta'minlovchi davlat organlari vakolatlari, funksiyalari va uni amalga oshirish yo'llari tizimi.

O'zbekistonda HFX boshqaruvi: davlat hokimiyati, organlari, birlashmalari, tashkilotlari, jamoat birlashmalri hamda ularning bexatar yashash darajasini ta'minlashdagi vakolatlari, funksiyalari va metodlari tizimi.

HFX milliy boshqaruvi – fuqarolarni bexatar yashash darajasini ta'minlashga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi.

Davlatning HFX boshqaruvi — o'z vakolat doirasida davlat boshlig'i, hokimiyati, ijro etuvchi davlat organlari va ularning hayot faoliyati xavfsizligi munosabatlarini tartibga solishdagi faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi hududida HFX ta'minlash - davlatning markaziy organlarining tegishli boshqaruvi.

Muayyan ma'muriy-hududiy birliklarda HFX ta'minlash - umumiy ko'rinishdagi mahalliy HFX boshqaruvi.

Davlatning maxsus HFX boshqaruvi – davlatning ixtisoslashtirilgan organlarini HFXni ta'minlashdagi vakolatlari, funksiyalari va amalga oshirish usullari tizimi.

Jamoat boshqaruvi – shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolarining yig'ini (vakillar yig'ilishi) o'z xavfsizlik manfaatlaridan, urf-odat qoidalaridan va bexatar yashashdan kelib chiqqan shholda, vakolat doirasida mustaqil faoliyat yuritishi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarida HFX — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) kelishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotining insonlarni bexatar yashash darajasini ta'minlashdagi vakolatilari, funksiyalari va uni amalga oshirish usullari tizimi.

HFX tarkibiga kiruvchi sub'ektlar: korxonalar; tashkilotlar va muassasalar.

Korxona – yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan iqtisodiyotning xilma-xil turlari (mahsulotlar va tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish hamda ishlarni bajarish) bilan shug'ullanib mustaqil xo'jalik faoliyatini yurituvchi ijtimoiy munosabat sub'ekti.

Tashkilot – yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan guruhlarining mehnat va majburiyatlar taqsimoti hamda boshqaruv tuzilmasi asosida u yoki bu turdagi vazifalarni hal etish uchun tuzilgan ijtimoiy munosabat sub'ekti. Ular tijorat yoki notijorat shaklda tuziladi hamda ichki tartib-intizomga asoslangan muvofiqlashtirish faoliyatini ta'minlash uchun tashkillashtiriladi.

Muassasa – yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan o'zini o'zi to'la yoki qisman moliyalashtiradigan boshqaruv, ijtimoiy-madaniy, jumladan ta'lim yoki boshqa notijorat vazifalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy munosabat sub'ekti.

HFX ahamiyati – muassasa, korxona, tashkilot, birlashma doirasida insonlarni bexatar faoliyat yuritishlarini ta'minlashni boshqarish qanday funksiyalarni bajarishi yoki uni global, regional, milliy va lokal miqyosda tutgan o'rni.

HFX maqsadi va vazifalari - muassasa, korxona, tashkilot kabi doirasida insonlarni bexatar faoliyat yuritishlarini ta'minlashni boshqarishdan maqsad va vazifalar.

Boshqaruv tizimi - boshqarishning tarkibiy qismlarining ma'lum bir qonununiyatlarga asoslangan tarzda ierarxik joylashuvi:

- korxona, tashkilot, muassasa, birlashmaning davlat va jamiyatning hayot faoliyatini barqaror ta'minlashdagi roli;

- ishtirokchilarining operativ, taktik va strategik boshqaruvning maqsadi va vazifalarini aniqlash;
- qo'yilgan maqsadga erishish jarayonini monitoring hamda tahlil qilish uchun samaradorlikning asosiy ko'rsatgichlarini to'g'ri tanlash;
- ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim va tarbiya berish kabi jarayonlarni HFX nuqtai nazardan tuzilishini aniqlash;
- boshqaruv qismlarining tuzilmasini tashkillashtirish;
- axborot bilan ta'minlash tizimi va sifatining borligini aniqlash;
- tegishli qarorlarni qabul qilish va ish yuritishni tadqiq qilishga doir metodlarni bilish;
- moddiy va moliyaviy ta'minot va h.k.

HFX boshqaruvini, albatta, zamonaviy axborot-kommunikasion vositalarni hamda huquqiy demokratik davlatda amaldagi qonunchilikdan chetga chiqmagan holda amalga oshirish kerak.

HFX ni boshqarishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ob'ekt holatining tahlili va bahosi;
- ob'ekt holatining tahlili va hisoboti;
- boshqarishning tadbirlari;
- boshqariluvchi va boshqaruvchi tizimlarni tashkil qilish;
Ishlab chiqarishda foydalaniladigan yoki texnologik jarayonlarni amalga oshirish davrida ajralib chiqadigan turli xil agressiv va zaharli kimyoviy moddalar, jumladan, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy o'g'itlar, pestitsidlar, tibbiyotda va dori-darmon tayyorlashda, atir-upa, attorlik mollarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan moddalar ham inson sog'ligiga katta ziyon etkazmoqda. Ayrim kimyoviy moddalar zaharlilik xususiyatiga ega bo'lsa, ayrimlari allergenlik (allergik kasalliklarini keltirib chiqarish xususiyati), kanserogenlik (rak kasalligini keltirib chiqarish xususiyati), mo'tagenlik (naslga ta'sir etish xususiyati) va teratogenlik (chala yoki mayib-majruh tug'ilishni yuzaga keltirish xususiyati), fibrogenlik (tanadagi to'qimalar birikmasining ajralishi) xususiyatlariga egadir. Bunday kimyoviy moddalarga ayniqsa, og'ir metallar (qo'rg'oshin, kadmiy, simob), noorganik gazlar (oltingugurt ikki oksidi, is gazi, azot oksidi, ozon), kremniy ikki oksidi (DDT, xlorli vinil va boshqalar) misol bo'lishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar alohida holda ham, aralashma holda ham inson sog'ligi uchun juda xavfli hisoblanadi. Keyingi yillarda rak kasalligining ko'payishi, turli xil kasalliklarning yangi turlarini vujudga kelishi, asosan, kimyoning ta'siridandir. Havo muhiti va tarkibi changlardan tashqari ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish davrida yuzaga keladigan turli xil zaharli gazlar va kimyoviy moddalar bilan ham ifloslanadi. Bu atmosfera havosini buzilishi bilan bir vaqtda turli xil kasalliklarni


kelib chiqishga ham sabab bo‘ladi.

Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelayotgan zaharli va zararli moddalar masalan, oqindi suvlar, axlatlar, ishlangan gazlar, radioaktiv moddalar, biotsidlar va boshqalar ekotizimga kelib tushgach izziz yo‘qolib ketmaydi. Ularning kichik konsentratsiyali miqdori ham uzoq vaqt ta’sir etishi, insonlarni, o‘simliklarni va hayvonlarni zaharlashi mumkin. Ayrim zaharli moddalar ozuqani tayyorlash va iste’mol qilish jarayonida ham ta’sir etishi mumkin.

Ish joylari havosini sog‘lomlashtirishda birinchi navbatda zararli changlar va gazlarning manbalari, ularni yuzaga kelishini kamaytirish yo‘llari, ushbu zararli gaz va changlarni ish joyi zonasiga kirish sabablari o‘rganilib, bartaraf etish choralari ko‘riladi. Yuqorida ko‘rsatilgan tadbirlar etarli darajada samarali bo‘lmagan hollarda esa shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish yoki ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

“Inkor daraxti” metodi - o‘tilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash, yodga olish, tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berishga qaratilgan

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan yoki texnologik jarayonlarni amalga oshirish davrida ajralib chiqadigan turli xil zararli va zaharli xavflarni identifikatsiyasini tasniflab bering



1. Soha faoliyatlarini tashkil qilish
2. Mehnat xavfsizligi xizmatining asosiy vazifasi
3. Soha xodimlarining hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash
4. Xavfsizlikni ta'minlovchi vositalar
5. Ish vaqti va dam olish rejimi
6. Ayollar va yoshlar mehnatini muhofaza qilish

Foydalanilgan adabiyotlar va axborot resurslari

1. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./ Darslik. –T.: “Tafakkur qanoti”, 2015. – 336 b.
2. Ibragimov E.I., Gazinazarova S., Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.
3. Yuldashev O.R., Djabborova Sh.G., Xasanova O.T. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik–T.:“Toshkent-Iqtisodiyot”,2014.– 268 b.
4. “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami. -T.: 2009 y., 40-son.
5. Azimov X.A. Bino va inshootlarda yong‘in xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. - T.: TAQI, 2004.
6. Yuldashev O.R., G‘ulomova G.M., Raxmatova D.M. Yong‘in xavfsizligi asoslari. Uslubiy qo‘llanma.-T.: TDTU, 2015.
7. Narziyev Sh.M., Kurbonov Sh.X. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma–T.:“Yangi nashr”, 2019.– 234 b.
- 8.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
- 9.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
- 10.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.
- 11.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyaNET.
- 12.<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
- 13.www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
- 14.www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
- 15.www.mintrud.uz – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
- 16.www.bilim.uz – OUMTV sayti.

5-amaliy mashg‘ulot: Zamonaviy shaxsiy va jamoa himoya vositalaridan oqilona foydalanishning zamonaviy pedagogik texnologiya usullari orqali tahlili (Baliq skeleti, FSMU va b.)

Mashg‘ulotning maqsadi. Zamonaviy shaxsiy va jamoa himoya vositalaridan oqilona foydalanishning zamonaviy pedagogik texnologiya usullari taxlili orqali amaliy ko‘nikmalar hosil qilish.

Mashg‘ulot rejasi

1. Ishchilarning hayoti xavfsizligi tahdid soladigan, ish joyidagi xavflar ta’sirlarini kamaytirish maqsadida zamonaviy shaxsiy vositalaridan oqilona foydalanish taxlili.
2. Ishchilarning hayoti xavfsizligi tahdid soladigan, ish joyidagi xavflar ta’sirlarini kamaytirish maqsadida zamonaviy jamoa himoya vositalaridan oqilona foydalanish taxlili.
3. Interfaol usuli orqali vazimoduli bajarish.

Topshiriq. “Inkor daraxti” usuli orqali chizmani tuzish.

Nazariy qism


Jamoa muhofaza aslahalari o'zining ishlatiladigan joylariga quyidagi muhofaza qiluvchi vositalar kiradi: mexanik, kimyoviy va biologik omillarning ta'siridan; ultratovush to'lqinlaridan; elektr ta'siridan; elektrostatik zaryadlar ta'siridan; xomashyolarning o'ta issiq va o'ta sovuq ta'siridan; chang va zaharli moddalarga qarshi o'rnatilgan vositalarni ham shular jumlasiga kiritish mumkin.

Shaxsiy muhofaza aslahalari o'z navbatida muhofazalash sharoitiga qarab muhofaza bosh kiyimlari, nafas olish organlarini muhofazalovchi qurilmalar, maxsus kiyimlar, maxsus oyoq kiyimlari, qo'lni, yuzni, ko'zni, quloqni muhofaza qiluvchi vositalar, yiqilib (balandlikda ishlayotganlar uchun) tushmaslikni ta'minlovchi va terini zararlanishdan saqlaydigan vositalaiga bo'linadi.

Sanoat korxonada qo'llaniladigan hamma jamoa muhofaza vositalariga quyidagilar kiradi: mexanik (to'siq vositalari, saqlovchi muhofaza vositalar va tormoz qurilmalari, blokirovka qurilmalari, signal va xavfsizlik belgilari, avtomatik nazorat qiluvchi asbob-uskunalar, masofadan boshqarish qurilmalari) omillarning ta'siridan; ish joylarini meyyorda yoritish; shovqin, titrash va ultratovushlardan muhofazalash; ionlanuvchi nurlardan muhofazalash; atrof muhitni yuqori va past xaroratlardan ximoya vositalari.

“Inkor daraxti” metodi - o‘tilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash, yodga olish, tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berishga qaratilgan

Qurilma elementlarida avariya sodir bo‘ldi. Natijada Grafik ko‘rinishida binoni avariya xolatiga olib kelgan xavflarni identifikatsiyasini tasfirlab bering



Nazorat savollari

1. Xavfli zona nima
2. Himoya vositalar nechta gruppaga bo'linadi
3. Jamoa muhofaza aslahalariga nimalar kiradi
4. Jamoa muhofaza aslahalariga nimalar kiradi
5. Jamoa muhofaza aslahalariga qaysi vaqtda ishlatiladi
6. Jamoa muhofaza aslahalariga qaysi vaqtda ishlatiladi

Foydalanilgan adabiyotlar va axborot resurslari

17. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./ Darslik. –T.: “Tafakkur qanoti”, 2015. – 336 b.
18. Ibragimov E.I., Gazinazarova S., Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.
19. Yuldashev O.R., Djabborova Sh.G., Xasanova O.T. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik–T.:“Toshkent-Iqtisodiyot”,2014.– 268 b.
20. “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun. O‘zbekiston Respublikasining qonun xujjatlari to‘plami. -T.: 2009 y., 40-son.
21. Azimov X.A. Bino va inshootlarda yong‘in xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. - T.: TAQI, 2004.
22. Yuldashev O.R., G‘ulomova G.M., Raxmatova D.M. Yong‘in xavfsizligi asoslari. Uslubiy qo‘llanma.-T.: TDTU, 2015.
23. Narziyev Sh.M., Kurbonov Sh.X. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma–T.:“Yangi nashr”, 2019.– 234 b.

24.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

25.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

26.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi.

27.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.

28.<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

29.www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.

30.www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

31.www.mintrud.uz – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.


32.www.bilim.uz – OUMTV sayti.

V. KEYSLAR BANKI

1-keys. “Inkor daraxti” interaktiv metodidan foydalanib, muammoli vaziyatga olib kelgan xavfli vaziyatning tahlili

“Inkor daraxti” metodi - o‘tilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash, yodga olish, tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berishga qaratilgan:

- o‘tilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash,
- tinglovchilar tomonidan yodga olish,
- tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish
- rahbar tomonidan qisqa vaqt ichida baholay olishga, og‘zaki hamda yozma nutqlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan.



2-keys. “FSMU» interaktiv metodidan foydalanib, inson tavakkal faktorini taxlili

“FSMU» metodi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

F – fikringizni bayon eting	
S – fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating	
M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring	
U – fikringizni umumlashtiring	

3-keys. “INSERT” METODI

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘tadi.

Metodning amalga oshirish tartibi:

1 qadam- mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishda tayyorlash;

2 qadam- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga taqdimot ko‘rinishda namoyish etiladi:

3 qadam- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydi:

Belgilar	
«V» – tanish ma’lumot	«←» – bu fikrga qarshiman
«?» – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak	«+» – bu ma’lumot men uchun yangilik

“Insert” jadvali


Tushunchalar	V	+	–	?
	+			
	+			
	+			

4 qadam- Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi.

4-keys. “Xodisalar daraxti” interaktiv metodidan foydalanib, berilgan muammoli vaziyatining tahlili

“Xodisalar daraxti” metodi - o‘tilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash, yodga olish, tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berishga qaratilgan:

- o‘tilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash,
- tinglovchilar tomonidan yodga olish,
- tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish
- rahbar tomonidan qisqa vaqt ichida baholay olishga, og‘zaki hamda yozma nutqlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan.



5-keys. «Aqliy hujum» interaktiv metodidan foydalanib, berilgan muammoli vaziyatining tahlili

«Aqliy hujum» ning asosiy qoidalari:

- aytilayotgan barcha g‘oyalar bir –biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
- kiritilayotgan g‘oyalar tanqid qilinmasligi kerak.
- g‘oyani taqdim etayotgan paytda so‘zlovchining gapini bo‘lmaslik.
- so‘zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.
- olg‘a surilgan g‘oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g‘oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g‘oyalar ham qo‘llab-quvvatlanadi;
- barcha g‘oyalar yoki ularning asosiy mag‘zi (farazlari) qayd etish yo‘li bilan yozib olinadi;
- «hujum»ni o‘tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko‘zda tutilishi kerak.

VI. TESTLAR

№ 1.

Ishlab chiqarish sanitariyasining asosiy vazifasi nimadan iborat?
Ishlab chiqarishda ish sharoitining sanitar-gigiyena talabalari darajasida bo'lishini ta'minlash
Ishlab chiqarishda mehnat qonunlariga rioya qilinishini nazorat qilish
Ishlab chiqarishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni nazorat qilish
Ishlab chiqarishda yong'in xavfsizligini ta'minlash

№ 2.

Uzluksiz faoliyat jarayonida inson sog'lig'i va mehnat qobiliyatini saqlashni ta'minlashga qaratilgan?
120 soat
45 soat
25 soat
55 soat

№ 3.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni qanday ishlarda foydalanish taqiqlanadi?
Mehnat sharoiti zararli yoki xavfli bo'lgan hamda yer osti ishlari
O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ishlashi mumkin emas
Mashina va traktorlarni tozalash ishlarida
Ishlab chiqarish korxonalarida

№ 4.

Mehnatni muhofaza qilish qaysi fanlar bilan uzviy bog'liq?
Tibbiyot, ijtimoiy huquqshunoslik va iqtisod va texnika fanlari bilan
Tibbiyot, ijtimoiy iqtisod va texnika fanlari bilan
Aniq fanlar bilan
Gumanitar fanlar bilan

№ 5.

Qanday yo'riqnomalar mavjud?
Ish joyidagi yo'riqnoma, rejadan tashqari yo'riqnoma va kirish yo'riqnomalari
Kirish yo'riqnomasi
Ish joyidagi yo'riqnomasi
Navbatdan tashqari yo'riqnomasi

№ 6.

Chang qanday guruhlarga bo'lib qaraladi?
Yirik chang, mayda chang, ultramikroskopik

Ko'p chang
Kam chang
Ultramikroskopik

№ 7.

Mehnat sharoiti ifloslanishi bilan bog'liq bo'lgan holatni ayting.
Zararli holat
Xavfli holat
Ifloslangan holat
Changlangan holat

№ 8.

Qanday vaziyatlarda, ish haqi saqlanmagan holda ta'til beriladi?
Oilaviy va boshqa uzirli sabablarga ko'ra
Korxona tartib intizomiga rioya qilmasligi sababiga ko'ra
Xodimning mehnat intizomini buzganligi sababiga ko'ra
Rahbarning ko'rsatmasiga ko'ra

№ 9.

Moddiy javobgarlik bu -...?
Ishchi va xizmatchining ishlayotgan korxonada uning aybi bilan keltirilgan moddiy zararni qoplash
Ishchi yoki xizmatchidan korxonaga yetkazgan zararini buyruqqa asosan oyligidan undirib olish
Ish jarayonida ishchining aybi bilan bir necha kishi jarohat olsa
Ishchi jinoiy ish qilgan bo'lsa

№ 10.

Qanday yoritish tizimlari mavjud?
Tabiiy va sun'iy
Bino ichidan
Tashqi jihoz
Qo'shimcha vosita

№ 11.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan yigit va qizlar necha kg dan yuk ko'tarishlari mumkin?
10-16 kg
19-21 kg
15-17 kg
13-17 kg

№ 12.

Kundalik yo'riqnoma bu -...?
Naryad-dopusk bilan bajariladigan xavfli ishlar ish boshlanishidan oldin o'tkazilishi
Ishga yangi kirgan ishchi bir ishdan ikkinchi ishga o'tkazilishi
Ishga yangi kirgan xodimlar uchun o'tkazilishi
Yangi materiallardan foydalanish natijasida o'tkazilishi

№ 13.

Tovush yutuvchi materiallarga nimalar kiradi?
Kapron tolalari, porolon, shisha tola
Elastik materialdan tayyorlangan qo'lqop, poyabzal
Sharf, ko'zoynak
Pol va patolok

№ 14.

Ishlab chiqarish xonalarida nisbiy namlik va havoning harakatlalanish tezligini ruxsat etilgan miqdori qancha bo'ladi?
60-40 %, 2-3 m/s
45-75 %, 2-0,1 m/s
35-45 %, 1,0-2,0 m/s
55-65 %, 0,2-0,5 m/s

№ 15.

Zaharlangan shaxsda qanday belgilar mavjud?
Oshqozon og'rishi, muskullarni ixtiyorsiz qisqarishi, xushdan ketish
Uyqi kelishi
Eshitish qobiliyatini yo'qotishi
Ko'z qorong'ulashadi

№ 16.

Individual sabablar -.... tufayli kelib chiqadi?
Himoya vositalaridan hamda maxsus kiyim boshdan foydalanmaslik yoki mos kelmasligi
Elektr qurilmalarni nazoratsiz qoldirilishi
Ish joyidagi noqulay mikroiklim
Yorug'lik tizimlarini yaxshi ishlamasligi

№ 17.

Odam organizmiga ta'sir etish darajasiga qarab barcha zararli va xavfli moddalar
--

necha turga bo'linadi?
Favqulodda xavfli, o'ta xavfli, o'rtacha xavfli, kam xavfli
Zararli, xavfli, o'ta xavfli
Zararli, o'ta zararli, xavfli, o'ta xavfli
Zararli, xavfli

№ 18.

Ichki qon ketayotganligini qanday belgilar orqali aniqlash mumkin?
Pulsning sekinlashishi, bosh aylanishi, rang oqarishi, kuchli suvsash
Qon bosim ko'tarilishi, muskullarning ixtiyorsiz qisqarishi
Rangi qizarishi, bosh og'rishi
Teri rangi oqaradi

№ 19.

Yuqori xavfli xonalarda namlik qancha bo'ladi?
75 % dan yuqori
80 % dan yuqori
70 % dan yuqori
90 % dan yuqori

№ 20.

Insonning hayotiy faoliyatida doimiy yoki vaqtincha xavfli omillar yuzaga keladigan joy.... deb ataladi?
Xavfli zonalar
Xronometrik kuzatishlar
Fizikaviy, kimyoviy omillar
Texnikaviy, tashkiliy omillar

№ 21.

Ishlab chiqarish xonalarini shamollatish qanday usullar orqali amalga oshiriladi?
Umumiy, mahalliy shamollatish
Tashqi tomondan shamollatish
Texnik tizimlaridan shamollatish
Aralash vositalardan shamollatish

№ 22.

Nisbiy namlik nima bilan o'lchanadi?
Psixrometr
Simobli termometr
Barometr
Anemometr

№ 23.

O'ta xavfli xonalarda nisbiy namlik necha foizga yaqin bo'ladi?
100 foizga
85 foizga
75 foizga
55 foizga

№ 24.

Havoni sovutish moslamalarining qanday turlari mavjud?
Sirt bo'yicha sovutish, kontaktli sovutish
Texnogen sovitish
Daraxt bilan sovutish
O'z-o'zini sovitish

№ 25.

Ultratovushli tizimlardan foydalanishda insonga qanday ta'sir qiladi?
Asab, suyak-bo'g'in tizimi ish faoliyati buzilishi
Arterial bosim ortishi, tomirlarni tortishi
Bosh og'rig'i, tez charchash, quloqlarda og'riq paydo bo'lishi
Quloqlarda og'riq paydo bo'lishi

№ 26.

Impulsi shovqin deb -...?
Agar shovqin 1 sek dan kam vaqt davom etuvchi bir yoki bir necha tovush signallaridan iborat
Agar shovqin darajasi vaqt oralig'ida 5 db dan ortiq o'zgarib turishi
Shovqinning tovush chastotasi bilan bog'lanishni tavsiyalovchi miqdor shovqinning chastotasidir
Gaz va suyuqliklarning quvurlarda harakatlanishidir

№ 27.

Blokirovka bu -...?
Mashinalar qismini muayyan holatda ushlab turuvchi vosita va uslublar majmui hisoblanadi
Mashina va mexanizimlarning xavfli zonalaridan himoyalashda xizmat qiladi
Qo'shimcha jarayonlarni ish asboblari almashtirish, ishlov berishdan iborat
Nostatsionar ishlarni bajarish

№ 28.

Nostatsionar ishlarni bajarish?

Paxta, faner, karton!
Paralon, temirdan
Ip, sim
Plasmassa, rezina

№ 29.

Xavfsizlik belgilari qanday guruhlarga bo'linadi?
Taqiqllovchi, ogohlantiruvchi, ko'rsatuvchi buyuruvchi
Blokirovkalagich, vaqtinchalik, saqlagich
Faol himoyalagich, to'siq himoyalagich
Vaqtinchalik

№ 30.

Changning o'pka yo'liga kirishi qanday kasalliklarni kelib chiqishiga olib keladi?
Pnevmoniya, sil, o'pka raki
Chuma, gripp, $ah_1 - n_1$
Gipertoniya, yurak hastaligi
Bosh og'rig'i, gepatit

№ 31.

Mikroiqlim holatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar nimalar?
Havoning harorati, nisbiy namligi, tezligi va bosimi
Xonaning changlanganligi va gazlanganligi
Xonaning harorati, bosimi, nisbiy namligi
Havoning absolyut va nisbiy namligi, harorati hamda bosimi

№ 32.

Yong'inni oldini olish tizimlari nimalardan iborat?
Yong'inga qarshi to'siqlarni o'rnatish, qurilma va inshootlarda avariya holatida o'chirish hamda yong'in vaqtida yonuvchi suyuqliklarni to'kilishini oldini oluvchi vositalardan foydalanish
Vaqtida habar berish
Birlamchi o't o'chirish vositalaridan foydalanish
Yong'in vaqtida evakuatsiya yo'llarini tashkil etish

№ 33.

Mehnat gigiyenasi nimani o'rganadi?
Tibbiyot fanining bir qismi bo'lib ish sharoitlarining inson sog'lig'iga va ish qobiliyatiga ta'sirini o'rganadi
Ishlab chiqarish joylarida ish joyini toza tutish va shaxsiy gigiyenaga amal qilish masalalarini

Sanitariya gigiyena, davolash va oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish masalalari
Ishlab chiqarish sanitariya masalalari

№ 34.

Elektr kuyish qanday ko‘rinishlardan iborat?
--

Bevosita yoki kontaktli

Uzun yoki qisqa

Keng yoki tarang

Bil vosita yoki ko‘p vosita

№ 35.

Zararli va zaharli gazlar miqdori va turini nima bilan aniqlash mumkin?

UG-2 markali gaz analizatorlari

Anemometr

Protivagaz

Psixrometr

№ 36.

Mexanik zo‘riqishdan saqlovchi qurilmaga nimalar kiradi?
--

Mufta, yuk ko‘tarishni cheklash moslamalari, uziluvchi shift va regulyator
--

Harakatlanishni ta‘minlovchi moslamalar

Bosim ostida ishlovchi bug‘, gaz

Saqlash klapnlari, membranalar

№ 37.

Jarohatlanishni o‘rganishda qanday usullardan foydalaniladi?
--

Tashkiliy-texnik usullardan

Tahlil usullardan

Taqqoslash usullaridan

Tarqatish usullaridan

№ 38.

Xavfli omillardan himoyalaniish usullarini qanday usullari mavjud?
--

Faol va passiv

Zararli va xavfsiz

Bosim va harorat

Xavfli va zararli

№ 39.

Jarohatlangan shaxsga jgut bog‘langandan so‘ng necha soat turmasligi kerak?

2 soat

3 soat
1 soat
5 soat

№ 40.

Ishlab chiqarish sanitariyasi nima?
Ishchilarga zararli ishlab chiqarish omillarini ta'sirini oldini oluvchi vositalar, sanitarik-texnik gigiyenik va tashkiliy tadbirlar sistemasidir
Ishlab chiqarishda ishlovchilarga muayyan sharoitlarda ta'sir etganda shikastlanishga yoki sog'liqning keskin yomonlashuviga olib keladigan omil
Zararli omillarga neft mahsulotlari (benzin, dizel yoqilg'isi), ish joyida namlikni ortishi yoki kuchli yoritilganligi, iqlim sharoitlari va boshqalar
Ishlab chiqarishdagi zararli omillar ta'sirini oldini oladigan chora-tadbirlar va texnika vositalari sistemasi

№ 41.

Quyidagilardan qaysi biri xavfsizlik va zararlilik darajasi bo'yicha 1-sinfga mansub?
Simob bug'lari, qo'rg'oshin va uning birikmalari
Benzin bug'lari, don changlari
Xlor bug'lar, o'simlik changlari
Ammiak bug'lari, atseton bug'lari

№ 42.

Yorug'lik signallari nimalarda qo'llaniladi?
Zamonaviy texnika va avtomobillarda
Potrlash, yong'in, biron predmet tushib ketishi xavfiga
Elektr isitgich qurilmalarida
Havo tozalagich vositasida

№ 43.

Elektr tokidan jarohatlangan shaxsga yurakni necha marotaba massaj qilish kerak?
10-12 marotaba
3-5 marotaba
7-9 marotaba
9-11 marotaba

№ 44.

Doimiy to'siq mexanizmi qanday ko'rinishda bo'ladi?
Qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas
Katta va keng

Kichik va keng
Qattiq va ko‘rinmas

№ 45.

Terining metallanishi bu –...?
Elektr yoyi ta’sirida erigan metall mayda zarrachalari terinig ustki qatlamiga kirib qolishi
Odam orqali o‘tayotgan to‘k ta’sirida mushaklarning ixtiyorsiz ravishda keskin tortishib qolishi
Qon tomirlari va asab to‘qimalarini uzilishi
Maxsus metaldan tayyorlangan kiyimlarni kiyishi

№ 46.

Ish o‘rnining ustida simlarning balandligi qancha?
2,5 m
4,6 m
3,6 m
1,6 m

№ 47.

Havoning harakati tezligi nima bilan o‘lchanadi?
Anemometr
Termometr
Barometr
Psixrometr

№ 48.

Qaysi jarayonda atrof-muhitga katta miqdorda chiqindi chiqadi?
Yengil sanoat korxonlarida ishlab-chiqarish jarayonida texnologik mashina uskunalaridan
Elektr stansiyasida
To‘qimachilik fabrikasida
Ko‘ylak tikish fabrikasida

№ 49.

Nazorat stansiyalarining tarmog‘i nima bilan belgilanadi?
Respublika miqyosi, atrof-muhitning ifloslanishi, ekonomika va urbanizatsiya darajasi bilan
Ifloslanishi, xavfsizligi
Tozalanishi, ekologizatsiyalash
Ekologizatsiyalash

№ 50.

Kishilik jamiyatining iqtisodiy manfaati nima?
Tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga o'zining moddiy ehtiyojini qondirish
Qornini to'yg'azish, kiyinish
Bilimli bo'lish uchun o'qish
O'qish uchun

№ 51.

Ishlab chiqarishda ishchilarga zararli va xavfli omillarning ta'sirini butunlay oldi olingan sharoit nima deb ataladi?
Ergonomika
Mehnat xavfsizligi
Gigiyenik sharoit
Qulay (komfort)

№ 52.

Me'yoriy hujjatlar nima uchun qabul qilingan?
Uzluksiz, chiqindisiz va kam chiqindili texnologik sikllar va ishlab chiqarishni yaratishga qaratilgan
Standart talabga javob berish uchun
Atmosferani tozalash uchun
Texnologik harita tuzishga

№ 53.

Iqtisodiy va ekologik manfaatlar qanday kurashda ob'yektiv mavjud bo'ladi?
Qarama - qarshiliklar kurashida
Maqsadli kurashda
Ongli kurashda
Ongli va maqsadli kurashda

№ 54.

Ayollar mehnati mehnat kodeksining qaysi moddalarida himoyalangani?
224-228 moddada
47-moddada
225-moddada
243-modda

№ 55.

Mehnat muhofazasi fani nimani orgatadi?
Iqtisodiyot mehnat gigiyenasi, fiziologiyasi, sanoat estetikasi
Jarohat va kasbiy kasalliklarning oldini olishda.

Havodagi changni olchash usullarini
Xomashyoning ishlab chiqarilishini

№ 56.

Atrof-muhitning muhofaza qilish nimaga kerak?
Hozirgi va kelajak sog‘lig‘ini muhofazalash
Havoni tozalash uchun
Tizimni yangilash
Havoni musaffoligiga erishish

№ 57.

Atmosferani ifloslantiruvchi asosiy manbalar qaysi korxonada?
Elektr stansiyalari, avtomobil transporti, qora rangli metallurgiya, qurilish materiallari, kimyo, paxta tozalash va pillani qayta ishlash korxonalari
Elektr zalida, tikuvchilik fabrikasi
To‘qimachilik, ishlab chiqarish korxonasi
Oziq-ovqat, ishlab chiqarish korxonasi

№ 58.

Yo‘riqnomaning qanday xillari bor?
Kirish yo‘riqnomasi va ish joyida o‘tkaziladigan yo‘riqnoma
Yakka tartibda o‘tkaziladigan yo‘riqnoma
Ish joyda o‘tkaziladigan yo‘riqnoma
Guruh bilan o‘tkaziladigan yo‘riqnoma

№ 59.

Changli massalar nimalarni ifloslantiradi?
Daraxtni nobud qiladi, yaqinidagi uylarni, oqar suvlarni
Havoni
Elektr uzatish liniyalari
Daryo, dengiz, suvlarini

№ 60.

“Mehnat muhofazasi” kursi necha bo‘limdan iborat?
4 bo‘limdan
5 bo‘limdan
3 bo‘limdan
7 bo‘limdan

№ 61.

Atrof-muhitni muhofazalash muammosi qanday hal qilinadi?
Ventilyatsion so‘rish quviri, chang tutish qurilmasi, texnologik siklli chiqitsiz,

ya'ni chiqindilarni ekologizatsiyalash bilan
Chiqitsiz, sikl, texnologik
Texnologik, pasaytirish, chiqitsiz
Chiqitsiz, texnologik, pasaytirish

№ 62.

II darajali yong'inga chidamli bino va inshootlarning vazifasi?
Konstruktiv elementlari yonmaydigan, yuqori chidamlikga ega bo'lgan
Bino va inshootlar yonmaydigan va qiyin materialdan yonuvchanligi
Barcha konstruksiyalari qiyin yonuvchi materiallardan tashkil topganligi
Barcha konstruksiyalar yonuvchi materiallardan tashkil topgan

№ 63.

Atmosfera havosini ifloslanishdan muhofaza qilish bo'yicha Davlat inspeksiyasi qaysi yili tuzilgan?
1981 yili
1982 yili
1986 yili
1988 yili

№ 64.

Ekologik harita nima uchun tuziladi?
Havo va suv havzalarini sog'lomlashtirish va bosh chizmalarini ishlab chiqarish uchun
Shaharni buzilishdan saqlash uchun
Texnologiyani o'rganish uchun
Texnologik tuzilishini o'rganish uchun

№ 65.

Infraqizil nurlar insonga qanday ta'sir ko'rsatadi?
Tana qizishi, tana haroratining o'zgarishi
Rak kasalligini kelib chiqishi
Tez toliqish, uyqusizlik
Bosh og'rig'i, kamdarmonlik

№ 66.

Kishilik jamiyatining iqtisodiy manfaati nima?
Qornini to'yg'azish, kiyinish
Tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga o'zining moddiy ehtiyojini qondirish
Bilimli bo'lish uchun o'qish
Kiyinish

№ 67.

O'zbek xalqining tarixiy va milliy qadriyatlari qayerda aks etgan?
Mustaqil O'zbekiston konstitutsiyasida
Davlat ichki ishlarida
Meteorologiya tashkilotlarida
Ishlab chiqarish korxonalarida

№ 68.

Ishga kirishda tanishib chiquvchi hujjat
Kichik yo'riqnoma
Ariza
Dalolatnoma
Ma'lumotnoma

№ 69.

"Mehnat muhofazasi" nima?
Ish jarayonida inson mehnati qobiliyatini va xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan qonunlar majmuasi
Tabiat muhofazasini o'rganish
Ish tartibi, qonun-qoidalar
Kishi sog'ligini oshirish qoidalar

№ 70.

Rangli signallarning qizil rangi qanday ma'noni anglatadi ?
Taqiqlash, yong'inga qarshi texnikaning belgilanishi
Ogohlantiruvchi belgi
Xavfsizlik, shu yerdan chiqilsin belgisi
Ko'rsatma axborot belgisi

№ 71.

Rangli signallar va xavfsizlik belgilari nechta turga bolinadi?
3 ta
4 ta
1 ta
5 ta

№ 72.

Tabiatni saqlash qonunchiligiga asosan saqlashning tabiiy ob'ektlariga ega nimalar kiradi?
Yer, uning boyliklari, suv, o'rmon, hayvonat dunyosi, atmosferalar havosi
Uy-joy, idish-tovoq

Ko'rupa-to'shak
Stol-stul, kiyim-kechak

№ 73.

Kurs bo'limlari qanday nomlanadi?
Mehnat qonunchiligida, ishlab chiqarish sanitariyasi, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi
Shikastlanish, elektr xavfsizligi
Elektromagnit xavfsizligi
Neft mahsulotlari xavfsizligi

№ 74.

Havoni, suvni va tuproqni ifloslanishdan ogohlantiruvchi tashkilotning nomi?
Respublika sanepedim stansiya nazorati
Davlat yong'in nazorati
Davlat kontexnik agentligi
Davlat energiya nazorati

№ 75.

Tana a'zolarini va to'qimalarini kutilmagan holda tashqi ta'sir ostida shikaslanishi nima deyiladi?
Jarrohlik
Kasallik
Tok urish
Sinish

№ 76.

Jarohatlar necha turga bo'linadi?
2 ta
3 ta
7 ta
5 ta

№ 77.

Kirish yo'riqnomasining dasturi necha turga bo'linadi?
9 ta
2 ta
6 ta
4 ta

№ 78.

Xavfsizlikni tahlil qilish uslublarini ko'rsating?
Aprior, aposterior
Aprior
Aposterior
Aposterior to'g'ri urinma

№ 79.

Mehnat muhofazasi haqida nazorat qiluvchi tashkilot nechta turga bo'linadi?
4 ta
7 ta
5 ta
3 ta

№ 80.

Yong'in xavfsizligi belgi axborotlari qaysi rangda?
Ko'k
Yashil
Qizil
Sariq

№ 81.

Qaysi moddaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish xizmati me'yorlari kamaytiriladi?
225 modda
224 modda
222 modda
236 modda

№ 82.

Changlar necha turga bo'linadi?
5 ta
4 ta
8 ta
6 ta

№ 83.

Ishlab chiqarishda bo'ladigan yong'inlarning kelib chiqishi necha turga bo'linadi?
2 ta
3 ta
5 ta
7 ta

№ 84.

Kasbiy kasalliklarga qanday kasalliklar kiradi?
Teri kasalliklari
Shap koʻrlik
Gripp
Skleroz

№ 85.

Ishlab chiqarish jarohatlari nechi turga boʻlinadi?
4 ta
7 ta
5 ta
3 ta

№ 86.

Uyaltirish, xayfsan eʼlon qilish qaysi javobgarlik turiga kiradi?
Maʼmuriy javobgarlik
Jinoiy javobgarlik
Moddiy javobgarlik
Soliq solish

№ 87.

Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tomonidan nechanchi yili mehnat muhofazasini oʻqitish va bilimlarni tekshirish nizomi ishlab chiqildi?
1996 yili
2001 yili
2003 yili
2005 yili

№ 88.

Neft mahsulotlari benzin, dizel yoqilgʻisi bugʻlari, mineral oʻgʻitlari qanday omil hisoblanadi?
Foydali omil
Zararli omil
Hayot uchun havfli
Talabga javob bermaydigan omil

№ 89.

Qancha koʻchmas toʻsiqlar texnologik va umumiy fabrika yuklari toʻsib turishi uchun qoʻllaniladi?

Doimiy
Muvaqqat
To'suvchi
Qo'zg'almas

№ 90.

Jarohatni tadqiq qilish necha turga bo'linadi?
4 ta
5 ta
7 ta
3 ta

№ 91.

Ortish tushurish ishlari tajribalari kim rahbarligida olib boriladi?
Tajribali shifokor
Tajribali xodim
Tajribali talaba
Ish boshqaruvchi tomonidan

№ 92.

Qurilish uchun joy tanlash nimalarga bog'liq?
Yerning relefi, suv ta'minoti, oqava suvni tashlab yuborish imkoniyati
Qurilish mollari
Aholi turar joyiga
Xomashyoning saqlanishiga

№ 93.

Ayollar mehnatini muhofaza qilish konstitutsiyaning qaysi moddalarida berilgan?
244-238 moddalarida
231-241 moddalarida
129-131 moddalarida
133-139 moddalarida

№ 94.

Bir qavatli binolarda eng qulay ustunlar necha metr hisoblanadi?
12 x 18 m
11 x 19 m
85 x 91 m
13 x 17 m

№ 95.

Statik elektr zaryadlari qachon ko‘p hosil bo‘ladi?
Paxta yoki sun‘iy tola bilan ishlaganda
Yig‘ilish bo‘lganda
Paxtaga sun‘iy tola qo‘shilganda
Faqat sun‘iy tola ishlatilganda

№ 96.

Mehnat kodeksining yangi tahriri qachondan kuchga kiradi?
2013 yil aprel oyidan
2013 yil iyun oyidan
2013 yil fevral oyidan
2013 yil mart oyidan

№ 97.

Axborot berishga mo‘ljallangan rangli signal va xavfsizlik belgisi qanday?
Qizil, sariq, ko‘k, yashil
Qora, oq
Sariq, yashil
Ko‘k, sariq

№ 98.

Mehnat muhofazasi bo‘yicha qonunlarning bajarishini nazorat qilib turish uchun qaysi davlat tashkilotlariga topshiriladi?
Mehnat vazirligi texnik nazorat agentligi, sanipedim stansiya nazorati
Gigiyena nazorati, epidemiya nazorati, sanitariya nazorati
Yong‘in nazorati
Energiya nazorati

№ 99.

Dastlabki yo‘riqnoma nima?
Rasmiylashtirish jurnaliga yozib qo‘yish
Qayta tekshirib ko‘rish
Vaqtincha muhlat berish
Ishchining malakasini tekshirib ko‘rish

№ 100.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida ayollar va erkaklar teng huquqli deyilgan?
46 modda

49 modda
57 modda
59 modda

№ 101.

Ishchilar bilan yo‘riqnoma o‘tkazish nechi xil bo‘ladi?
2
3
7
5

№ 102.

Mehnat muhofazasi bo‘icha bilimlarni tekshirishning qanday turlari belgilangan?
Dastlabki, davriy va navbatdan tashqari
Doimiy, navbatdan tashqari
Nodavriy, doimiy
Oxirgi, navbatdagi

№ 103.

Mehnat muhofazasi xonasi nima uchun kerak?
Yo‘riqnoma o‘tkazish va xodimlar mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qitiladi
Ishchilar dam olishlari uchun
Tibbiy yordamga muhtoj ishchilar uchun
Qorovullar uxlashi uchun

№ 104.

Ishchilar bilan yo‘riqnoma o‘tkazish turlarini to‘g‘ri toping?
Kirish va ish joyida o‘kaziladigan
Chiqish, ishdan tashqarida o‘tkaziladigan
Ko‘chada o‘kaziladigan
Odamlar orasida o‘tkaziladigan

№ 105.

Jamoa shartnomasida nimalar nazarda tutilgan?
Mehnat sharoitlarini sog‘lomlashtirish va engillashtirish tadbirlarini bajarish
Mehnat ishlarini kamaytirish
Mehnatkashlarga qo‘shimcha maosh to‘lash tadbirlarini bajarish
Dam olish tadbirlarini bajarish

№ 106.

Mehnat qobiliyati – bu...?

Insonning jismoniy yoki aqliy ishida unga yuklatilgan hajmdagi bajarish qobiliyati
Ishchining kuch – quvvati
Jismoniy shaxsning ishga kelib ketishi
Ishchi-xodimlarni ish joylarida bo‘lishi

№ 107.

Insonning mehnat unumdorligi nimalarga bog‘liq?
Aqliy va jismoniy omillariga
Fahm farosatiga
Sog‘lig‘iga
Charchamasligiga

№ 108.

Mehnat kodeksining 157-moddasiga muvofiq-...?
Dam olish va bayram kunlari bajariladigan ishlar uchun kompensatsiya va haq to‘lash amalga oshiriladi
Dam oladigan kunlari ishga jalb etish amalga oshiriladi
Ish vaqti belgilangan
Oylik maosh oshirilishi

№ 109.

Ishlash ritmi qanday aniqlanadi?
Shaxsiy xususiyatlari, harakteri va maqsadga intiluvchanligi orqali
Ishga kelib – ketishi orqali
Rejali ishlashi orqali
Betartib ishlashi orqali

№ 110.

Mehnat sharoiti bu-...?
Mehnat jarayonida insonning salomatligi va ish salomatligiga ta’siri etadigan omillar majmui
Mehnat jarayonida ishchilarning ish tartibidir
Insonning mehnat jarayonida yaxshi ishlashi
Mehnat jarayonida insonning salomatligi va ish salomatligiga ta’sir etmaydigan omillar majmui

№ 111.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat muhofazasini nazorat qiluvchi tashkilotlar soni nechta?
5
4

6
2

№ 112.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining vazifalari nimalardan iborat?
Korxonalarda xavfsiz ishlash, texnika xavfsizligi bo'yicha me'yoriy qoidalariga, sanoat sanitariyasiga va mehnat gigiyenasiga hamda mehnat qonunchiligiga rioya qilish masalalarini nazorat qiladi
Korxonalarda mehnat qonunchiligini to'g'ri yo'lga qo'yilganligini nazorat qiladi
Korxonalarda mehnat gigiyenasiga rioya qilish masalalarini nazorat qiladi
Korxonalarda texnika xavfsizligi bo'yicha me'yoriy qoidalar masalalarini nazorat qiladi

№ 113.

"Sanoatgeokontekstnazorat" agentligining vazifalari nimalardan iborat?
Bug' qozonlarining to'g'ri ishlashini, bosim ostida ishlaydigan idishlarni, yuk ko'tarish mashinalari, gaz usullari, magistral quvurlari ishini va portlovchi moddalarni ishlatish, saqlash-tashish ishlarini nazorat qiladi
Yuk ko'tarish mashinalari va portlovchi moddalarni ishlatish, saqlash-tashish ishlarini nazorat qiladi
Bug' qozonlarining to'g'ri ishlashini nazorat qiladi
Gaz usullari, magistral quvurlari ishini nazorat qiladi

№ 114.

Respublika sanitariya epidemiologiya nazoratining vazifalari nimalardan iborat?
Havo, suv va tuproqni iflonlanishdan ogohlantirish, shovqin va titrashni yo'qotish, tsexlarining sanitariya holatlarini yaxshilash ishlarini nazorat qiladi
Shovqin va titrashni yo'qotish, tsexlarining sanitariya holatlarini yaxshilash ishlarini nazorat qiladi
Havo, suv va tuproqni iflonlanishidan nazorat qiladi
Fabrika va zavodlarning sanitariya holatlarini yaxshilash ishlarini nazorat qiladi

№ 115.

Davlat nazorati yong'in nazoratining vazifalari nimalardan iborat?
Yong'inga qarshi tadbirlarni o't o'chirish vositalarining holatini, yong'in haqida xabar berish vositalarining ishini nazorat qiladi
Yong'inga qarshi tadbirlarning ishini nazorat qiladi
Yong'inga qarshi vositalarining ishini nazorat qiladi
O't o'chirish vositalarining holatini nazorat qiladi

№ 116.

O'zbekiston Respublikasi energetika va elektrlashtirish Davlat aktsionerlik jamiyatining vazifalari nimalardan iborat?
Korxonalaridagi energiya tizimlarining texnik ekspluatatsiyasini va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishni nazorat qiladi
Korxonalaridagi energiya tizimlarining texnik ekspluatatsiyasini nazorat qiladi
Korxonalaridagi xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishni nazorat qiladi
Ishlab chiqarish korxonalarini nazorat qiladi

№ 117.

Mehnatni muhofazasi qilishning nomenklatura chora tadbirlari nechta turga bo'linadi?
3
2
4
6

№ 118.

Mehnatni muhofazasi qilishning nomenklatura chora tadbirlari qayerda va nimaga asosan o'tkaziladi?
Sanoat korxonalarida va bosh rejaga asosan o'tkaziladi
Mehnat muhofazasi qilishning nomenklatura chora tadbirlarini o'tkazish shart emas
Katta yig'inlarda rejaga asosan o'tkaziladi
Madaniyat saroylarida rejaga asosan o'tkaziladi

№ 119.

Mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora tadbirlari turlariga izoh bering?
Baxtsiz hodisalarning oldini olish, sanoat korxonalarida kasb kasalliklarini kamaytirish, ish sharoitini umuman yaxshilashga qaratilgan
Ish sharoitini umuman yaxshilashga qaratilgan
Sanoat korxonalarida kasb kasalliklarini kamaytirishga qaratilgan
Mahsulotlarni sifatini yaxshilashga qaratilgan

№ 120.

O'smirlarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar Konstitutsiyaning qaysi moddasida qayd qilingan?
Konstitutsiyaning 239-moddasida
Konstitutsiyaning 158-moddasida
Konstitutsiyaning 228-moddasida
Konstitutsiyaning 46-moddasida

№ 121.

Ishchilarga ishlab chiqarishning zararli omillari ta'sirini oldini oluvchi vositalar, sanitar-texnik, gigiyenik va tashkiliy tadbirlar sistemasi nima?
Hayot faoliyati xavfsizligi
Texnika xavfsizligi
Ishlab chiqarish sanitariyasi
Mehnat xavfsizligi

№ 122.

Inson faoliyati tabiatga qanday ta'sir ko'rsatadi?
Texnosferani kengaytirilishi hisobiga tabiiy muhit ulushini kamayishiga ta'sir qiladi
Tabiatni yanada rivojlanishiga
Tabiat va texnosferani ulushlarini kengayishiga
Tabiatga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi

№ 123.

Mehnat faoliyati jarayonida insonga ta'sir qiluvchi omillar yig'indisi nima?
Ishlab chiqarish muhiti
Maishiy muhit
Tabiiy muhit
Madaniy muhit

№ 124.

Murakkab hodisalarni, tushunchalarni, kishi faoliyatiga qaratilgan narsalarni tasniflash va tizimlash to'g'risidagi fanni ko'rsating?
Mehnat muhofazasi
Xavflar taksonomiyasi
Fizika
Mexanika

№ 125.

Xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'tkaziladigan yo'riqnomalar necha xil bo'ladi?
Kirish, ish joyida, navbatdagi, navbatdan tashqari
Kirish, birlamchi, rejali, rejadan tashqari, joriy
Kirish, birlamchi, navbatdagi, mavsumiy
Kirish, birlamchi

№ 126.

Xavfsizlikni ta'minlovchi umumiy texnik vositalariga nimalar kiradi?
To'suvchi, saqlash, tormoz, blokirovka va signalizasiya qo'rilmalar, masofadan boshqarish distansion qurilmalari

To'suvchi qo'rilmalar, saqlash qurilmalari, xavfsizlik belgilari
Signalizasiya qurilmalari, masofadan boshqarish qurilmalari, xavfsizlik belgilari
Blokirovka qurilmalari, saqlash qurilmalari

№ 127.

Ish joyidagi yo'riqnomani kim tomonidan o'tkaziladi?
Ishchiga bevosita rahbarlik qiladigan usta. Zarur bo'lganda mexanik, energetik, texnologik yoki maxsus instruktorlar
Sex boshliqlari tomonidan tuziladi va bosh muxandis tomonidan tasdiqlanadi reja asosida o'tkaziladi
Mehnat sharoitlar yoki uskunolari o'zgarganda, tsexda baxtsiz hodisa yuz berganda va boshqa hollarda o'tkaziladi
Har bir yo'riqnoma alohida maxsus jurnalga rasmiylashtiriladi

№ 128.

Yo'riqnoma qanday rasmiylashtiriladi?
Har bir yo'riqnoma alohida maxsus jurnalga rasmiylashtiriladi.
Mehnat sharoitlar yoki uskunolari o'zgarganda, tsexda baxtsiz hodisa yuz berganda va boshqa hollarda o'tkaziladi
Ishchiga bevosita rahbarlik qiladigan usta. Zarur bo'lganda mexanik, energetik, texnologik yoki maxsus instruktorlar
Tsex boshliqlari tomonidan tuziladi va bosh muxandis tomonidan tasdiqlanadi reja asosida o'tkaziladi

№ 129.

Xavfsiz ishlash bo'yicha yo'riqnoma kim tomonidan ishlab chiqiladi?
Sex boshliqlari tomonidan tuziladi va bosh muxandis tomonidan tasdiqlanadi
Zarur bo'lganda mexanik, energetik, texnologik yoki maxsus instruktorlar
Har bir yo'riqnoma alohida maxsus jurnalga rasmiylashtiriladi
Mehnat sharoitlar yoki uskunolari o'zgarganda, tsexda baxtsiz hodisa yuz berganda tuziladi

№ 130.

Sanoat korxonalarida davriy yo'riqnoma qanchada bir o'tkaziladi
Har kvartalda bir marta
Olti oyda bir marotaba
Yilda bir marotaba
Faqat ishga kirayotganda o'tkaziladi

№ 131.

Navbatdan tashqari yo'riqnoma qachan o'tkaziladi
Mehnat sharoitlar yoki uskunolari o'zgarganda, tsexda baxtsiz hodisa yuz berganda

va boshqa hollarda o'tkaziladi
Har kvartalda ishchi hodimlar bir martadan yo'riqnomadan o'tadi
Olti oyda bir marotaba muxandis texnolog hodimlar o'tkaziladi
Yilda bir marotaba muxandis texnologlar va ishchi hodimlar bir martadan o'tkaziladi

№ 132.

Maxsus naryad yoki ruxsatnoma kimlarga beriladi?
O'ta xavfliy ishlarda ishlaydigan ishchilar
Yoqilg'i quyish shaxobchalari ishchilariga
Akumlator taminlovchilarga
Mahfiy uchastkalarda ishlaydigan harbiylarga

№ 133.

Mehnat qonunlari va boshqa normativ hujjatlarni nazorat qiluvchi davlat organlarini ko'rsating?
Davlat energetika, sanitariya, O'zsanoattog'kontexnazorat va yong'in nazorati.
Kasaba qo'mitasining texnik inspektorlari, davlat energetika va yong'in nazorati.
Davlat energetika sanitariya, yong'in nazoratlari, jamoat inspektorlari
Davlat energetika, sanoat, sanitariya va yong'in nazorati

№ 134.

Barcha ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan nazorat?
Uch pog'onali nazorat
Ko'p pog'onaliy nazorat
Besh pog'onali nazorat
Umumiy nazorat

№ 135.

I pog'ona nazorat kim tomonidan o'tkaziladi va qanday ishlar bajariladi?
Har kuni usta jamoatchi-nazoratchi birgalikda sexdagi ish joylarini aylanib chiqib, uchragan kamchiliklarni tuzatish choralari ko'radilar
Har hafta sex boshlig'i katta jamoatchi nazoratchi bilan birgalikda tsexdagi ish joylarini aylanib chiqib, uchragan kamchiliklarni tuzatish choralari ko'radi
Oyda bir marta korxona bosh muhandisi mehnat muhofazasi muhandisi bilan birgalikda ish joylarini aylanib chiqadilar. Bu nazorat bo'yicha korxonada qaror chiqariladi
Texnika xavfsizligi bo'yicha ma'sul shaxs va kasaba uyushmasi raisi birgalikda o'tkazadi

№ 136.

II pog'ona nazorat kim tomonidan o'tkaziladi va qanday ishlar bajariladi?

Har hafta sex boshlig'i katta jamoatchi nazoratchi bilan birgalikda sexdagi ish joylarini aylanib chiqib, uchragan kamchiliklarni tuzatish choralarini ko'radi
Texnika xavfsizligi bo'yicha ma'sul shaxs va kasaba uyushmasi raisi hamda xotin-qizlar kengashi raisi birgalikda o'tkazadi
Oyda 1 marta korxona muhandisi mehnat muhofazasi muhandisi bilan birgalikda ish joylarini aylanib chiqadilar. Bu nazorat bo'yicha korxonada qaror chiqariladi
Har kuni usta jamoatchi-nazoratchi birgalikda sexdagi ish joylarini aylanib chiqib, uchragan kamchiliklarni tuzatish choralarini ko'radilar

№ 137.

III pog'ona nazorat kim tomonidan o'tkaziladi va qanday ishlar bajariladi?
Oyda bir marta korxona bosh muhandisi mehnat muhofazasi muhandisi bilan birgalikda ish joylarini aylanib chiqadilar. Bu nazorat bo'yicha korxonada qaror chiqariladi
Har hafta sex boshlig'i katta jamoatchi nazoratchi bilan birgalikda sexdagi ish joylarini aylanib chiqib, uchragan kamchiliklarni tuzatish choralarini ko'radi
Har kuni usta jamoatchi-nazoratchi birgalikda sexdagi ish joylarini aylanib chiqib, uchragan kamchiliklarni tuzatish choralarini ko'radilar
Yuqori malakaliy ishchi hodimlar va korxona mamuriyati tomonidan tayinlangan ma'sul shaxslar birgalikda o'tkazadi

№ 138.

Baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlash va tahlil qilish uslublarini ko'rsating?
Monografik, statistik, topografik, iqtisodiy
Statistik, topografik, iqtisodiy
Statistik, iqtisodiy va matematik
Statistik, iqtisodiy, monografik

№ 139.

Shikastlanish nima?
Ishlab chiqarishdagi zararli yoki xavfli ta'sirlar natijasida inson organlari yoki teri qoplamasi fiziologik butunligini buzilishi
Mexanik kuchlar ta'sirida vujudga keladigan jarohatlanish
Ish bilan bog'liq bo'lgan barcha hodisalardan olingan jarohatlarga aytiladi
Korxona hududida o'z ish vazifasidan boshqa ishlarni bajarayotganda olgan jarohatlarga aytiladi

№ 140.

Jarohat deb nimaga aytiladi?
Tashqi muhit ta'sirida kishi tanasining behosdan shikastlanishiga aytiladi
Ish bilan bog'liq bo'lgan barcha hodisalardan olingan jarohatlarga aytiladi

Ishga ketayotganda, qaytayotganda olgan jarohatlarga aytiladi
Korxona hududida o'z ish vazifasidan boshqa ishlarni bajarayotganda olgan jarohatga aytiladi

№ 141.

Jarohat turlarini ayting.
2 xil
3 xil
7 xil
5 xil

№ 142.

Ishlab chiqarish jarohatlari necha xil bo'ladi?
5 ta
2 ta
4 ta
6 ta

№ 143.

Ish bilan bog'liq bo'lgan jarohatlar deb nimaga aytiladi?
Ishga ketayotganda, qaytayotganda va korxona hududida o'z ish vazifasidan boshqa ishlarni bajarayotganda olgan jarohatlarga aytiladi
Ish bilan bog'liq bo'lgan barcha hodisalardan olingan jarohatlarga aytiladi
Ishchilarga zararli ish sharoitlarining ta'siri natijasida hosil bo'lgan kasalliklardan olingan jarohatlarga aytiladi
Ishchi yoki hodimlarni korxonada yoki undan tashqarida xizmat vazifasini bajarayotganda olgan jarohatlari kiradi

№ 144.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jarohatlar deb nimaga aytiladi?
Ishchi yoki hodimlarni korxonada yoki undan tashqarida xizmat vazifasini bajarayotganda olgan jarohatlari aytiladi
Ishga ketayotganda, qaytayotganda va o'z ish vazifasidan boshqa ishlarni bajarayotganda olgan jarohatlarga aytiladi
Ishchilarga zararli ish sharoitlarining ta'siri natijasida olingan jarohatlarga aytiladi
Ish bilan bog'liq bo'lgan barcha hodisalardan olingan jarohatlarga aytiladi

№ 145.

Maishiy jarohat deb nimaga aytiladi?
Ish bilan bog'liq bo'lgan barcha hodisalardan olingan jarohatlarga aytiladi
Ishchilarga zararli ish sharoitlarining ta'siri natijasida hosil bo'lgan kasalliklardan

olingan jarohatlarga aytiladi
Ishga ketayotganda, qaytayotganda va korxona hududida o'z ish vazifasidan boshqa ishlarni bajarayotganda olgan jarohatlarga aytiladi
Ishchi yoki hodimlarni korxonada yoki undan tashqarida xizmat vazifasini bajarayotganda olgan jarohatlar kiradi

№ 146.

Kasb kasalligi nima?
Ishchilarga zararli ish sharoitlarining ta'siri natijasida hosil bo'lgan kasalliklar
Korxona hududida o'z ish vazifasidan boshqa ishlarni bajarayotganda olgan jarohati tufayli hosil bo'lgan kasalliklar aytiladi
Ishchi yoki hodimlarni korxonada xizmat vazifasini bajarayotganda olgan jarohati tufayli hosil bo'lgan kasalliklar aytiladi
Ish bilan bog'liq bo'lgan barcha hodisalardan olingan jarohatlari tufayli hosil bo'lgan kasalliklar aytiladi

№ 147.

Jarohatlanish, kasbiy kasalliklar va zaharlanishlar sabablari nechta guruhga bo'linadi?
4 ta
7 ta
3 ta
5 ta

№ 148.

Jarohatlanishni tahlil qilish usullari nechta?
4 ta
7 ta
3 ta
5 ta

№ 149.

Statik usulda nima aniqlanadi?
Jarohatlanish sabablari tahlil qilinadi?
Kasbiy kasalliklar tahlil qilinadi
Jarohatlanish va kasbiy kasallik tahlil qilinadi
Avariya bo'yicha hisobot yuritiladi

№ 150.

Topografik usulda jarohatlanish qanday o'rganiladi?
Baxtsiz hodisa yuz bergan joyga nisbatan o'rganiladi

Hisobot vaqtida ro'y bergan baxtsiz hodisalarni sabablarini aniqlashga asoslangan
Ishlab chiqarishda jarohatlanishdan ko'rilgan zararni aniqlash
Baxtsiz hodisa ro'y bergan ish joyini har tomonlama batafsil tadqiq qiladi

№ 151.

Tovush intensivligini o'lchov birligi nima?
Detsibel
Bel
Gers
Dina

№ 152.

Ritmlarga rioya qilingan ohangrabo tovushlarning tebranishi nima?
Musiqiy tovush
Aralash tovush
Toza tovush
Shovqin

№ 53.

Mashinalarning yoki uning detallarini mexanik tebranishi nima?
Shovqin
Tovush
Titrash
Tebranish

№ 54.

Tashqi arterial qon oqishida organizmda qanday holatlar kuzatiladi?
Organizmda umumiy kuchsizlik, shikastlangan joyda kuchli og'riq
Organizmda umumiy kuchsizlik kuzatiladi
Shikastlangan joyda kuchli og'riq
Organizmda umumiy kuchsizlik va og'riq

№ 155.

Miya uchun necha Gers chastotadagi tebranish to'liqlari xavfli hisoblanadi?
8 Gs
3 Gs
5 Gs
9 Gs

№ 156.

Bir xil chastotadagi sinusoidal tebranishlar nima?
--

Toza tovush
Tovush chastotasi
Shovqin
Aralash tovush

№ 157.

Sun'iy nafas berish chastotasi minutiga necha marta bo'lishi lozim?
12-14 m/marta;
8-10
12-16
16-18

№ 158.

Shovqin deb nimaga aytiladi?
Har xil kuch va chastotadagi tartibsiz tovushlar majmui
Bir me'yordagi tovush
Bir me'yordagi tovush to'liqlinining tarqalishi
Tovush bosimining o'zgarishi

№ 159.

Odam qulog'i eshitadigan tovush chastotasi qanday?
16-20000 Gs
0-15
16-500
16-10000

№ 160.

Qanday chastota tovushlar ultratovush deyiladi?
20000 Gs dan yuqori
15 Gs dan yuqori
5000 Gs dan yuqori
10000 Gs dan yuqori

№ 161.

Shovqin qanday moslamada qanday o'lchanadi?
Shum-1
GX-2
GX-4
UG-2

№ 162.

Tovush chastotasi nima bilan o'lchanadi?
Gers
Sekund
Bel
Detsibel

№ 163.

Turli balandlikdagi va chastotadagi tovushlarning tartibsiz qo'shib eshitilishi nima?
Shovqin
Musiqiy tovush
Aralash tovush
Toza tovush

№ 164.

Tovush chastotasi 20000 Gers dan katta shovqinlar qanday nomlanadi?
Ultratovush
Infratovush
Infratovush
Shovqin

№ 165.

Titrash kelib chiqish sababiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
Transport, transport-texnologik, texnologik
Texnologik
Transport-texnologik
Transport-texnologik zo'riqish

№ 166.

Titrashning o'lchov birligi nima?
Detsibel
Gers
Lyumen
Chastota

№ 167.

Yurak tashqi massaj qilinganda ko'krak qafasi necha santimetr chuqurlikka minutiga necha marta chastota bilan bosiladi?
3-4 sm gacha chuqurlikka minutiga 60 marta chastota bilan bosiladi.
2-3 sm gacha chuqurlikka minutiga 60 marta chastota bilan bosiladi
4-5 sm gacha chuqurlikka minutiga 60 marta chastota bilan bosiladi

5-6 sm gacha chuqurlikka minutiga 60 marta chastota bilan bosiladi
--

№ 168.

Isitish tizimi qanday turlarga bo‘linadi?

Markaziy, mahalliy

Lokal, umumiy

Lokal, umumiy

Passiv, faol

№ 169.

Ishlab chiqarish binolarining hajmi bir ishchi hisobiga 20 m^3 bo‘lganda almashinishi lozim bo‘lgan toza havo miqdori qancha bo‘lishi kerak?
--

$20 \text{ m}^3/\text{s}$

$30 \text{ m}^3/\text{s}$

$10 \text{ m}^3/\text{s}$

$20 \text{ m}^3/\text{s}$ dan katta

№ 170.

Tabiiy shamollatishda havo almashinuvi nima hisobiga amalga oshadi?

Tashqi va ichki bosim farqi hisobiga

Havo tarkibidagi zararli gazlar konsentratsiyasini oshishi hisobiga

Tashqi shamol kuchi hisobiga

Ultrabinafsha nurlari ta’sirida

№ 171.

Deflektorlar qayerda va nima maqsadda ishlatiladi?
--

Tabiiy havo almashinish qurilmalarida ularning ish unumdorligini oshirish maqsadida.
--

Sun’iy havo almashinish qurilmalari

Tabiiy havo almashinish qurilmalari

Sun’iy va tabiiy havo almashinish qurilmalarida

№ 172.

Tabiiy havo almashinish sistemasidagi deflektorning samaradorlik koeffitsienti deb nimaga aytiladi?

Deflektor ish unumdorligini havo tezligiga nisbati
--

Trubadagi havo tezligining shamol tezligiga nisbati

Shamol tezligining trubadagi havo tezligiga nisbati

Deflektor diametrining shamol tezligiga nisbati

№ 173.

Xonalardagi havo almashinuvini ichki va tashqi havo harorati va bosimni farqi hisobiga darchalardan, quvurlardan amalga oshishi qanday nomlanadi?
Tabiiy shamollatish (aeratsiya)
Sun'iy shamollatish (aeratsiya)
Markaziy shamollatish (aeratsiya)
Mahalliy shamollatish (aeratsiya)

№ 174.

Shamollatkichlar ishlatish joyiga qarab qanday turlarga bo'linadi?
Umumiy, mahalliy
Tabiiy, mahalliy
Umumiy, Sun'iy
Markaziy, mahalliy

№ 175.

Isitishda issiqlik manbai sifatida nimadan foydalaniladi?
Suv, suv bug'i, havodan
Konditsioner, kolorifer pechlardan
Elektr, ko'mir, suyuq yoqilg'idan
Gaz, elektrdan

№ 176.

Past bosimli suv bilan isitish sistemalarida suvning harorati isitish moslamalariga kirish va qaytib chiqishda necha gradus atrofida bo'ladi?
85-95°C va 65-70°C
75-85°C va 55-60°C
80-85°C va 65-70°C
75-95°C va 55-70°C

№ 177.

Yukni og'irligi necha kg dan ohsa bu ishlarni mexanizatsiyalash kerak.
50 – kg dan ohsa,
16 – kg dan ohsa,
20 – kg dan ohsa,
100 – kg dan ohsa.

№ 178.

Inson tanasining elektr toki ta'siriga qarshiligi qanchani tashkil etadi?
1000 – 100000 Om
6000 – 100000 Om
1000 – 200000 Om

500 – 1000 Om

№ 179.

Sezilarli tok kuchi qancha bo‘ladi?

5 mA gacha.

4 mA gacha.

3 mA gacha.

12 mA gacha.

№ 180.

Odam bir vaqtda tegadigan tok zanjirining ikki nuqtasi orasidagi kuchlanish qanday ataladi?

Qadam kuchlanishi

Tegish kuchlanishi

Yerga ulash kuchlanishi

Nollashtirish kuchlanishi

№ 181.

Elektr toki organizmdan o‘tishi bilan unga qanday ta’sir qiladi?
--

Issiqlik bilan, kimyoviy, biologik

Fizik, kimyoviy, biologik

Mexanik, kimyoviy, biologik

Fiziologik, kimyoviy, biologik

№ 182.

Sun’iy yerga ulagichlar sifatida ishlatiladigan po‘lat quvur va burchaklarning uzunligi va qalinligi qanday bo‘lishi lozim?

2-3 m, 3,5 mm

5-6 m, 3,5 mm

10 m, 4 mm

20 m, 5 mm

№ 183.

Elektr xavfsizligiga bog‘liq holda xonalar qanday guruhlariga bo‘linadi?
--

Xavfi yuqori bo‘lmagan, xavfi yuqori, o‘ta xavfli

Xavfi yuqori bo‘lmagan, xavfi yuqori

Xavfi yuqori bo‘lmagan, xavfi o‘ta past

Xavfi yuqori bo‘lmagan, xavfi o‘ta past

№ 184.

Yerga ulash qarshiligi qanchadan ortiq bo‘lmasligi kerak?

10 Om
15 Om
16 Om
17 Om

№ 185.

Ishlab chiqarish xonalari elektr xavfsizligi bo'yicha necha guruhga bo'linadi?
3
2
5
4

№ 186.

N-1 forma bo'yicha baxtsiz hodisalar qachon rasmiylashtiriladi?
1 kun
1 soat
2 soat
6 soat

№ 187.

Baxtsiz hodisa bo'lib o'tgandan keyin necha vaqt ichida uni tergov qilib sabablarini aniqlashadi va tadbirlar tuziladi?
3 sutka
12 soat
24 soat
2 sutka

№ 188.

Yurakni tashqaridan uqalash nima maqsadda qo'llaniladi?
Qon aylanishini quvvatlash uchun
Nafas olishni tiklash hushiga keltirishga
Shikastlangan odamni hushiga keltirishga
Jarohatdan saqlashga

№ 189.

Ishlatishdagi qozonlar qanday muddatlarda bosim ostida tekshiruvdan o'tkaziladi?
Kamida 6 yilda bir marta
Kamida 1 yilda bir marta
Kamida 3 yilda bir marta
Kamida 5 yilda bir marta

№ 190.

Yuk ko‘tarish kranlarini dinamik va statik sinashda qancha miqdordagi yukdan foydalanish talab etiladi?
10 % va 25 % katta yukda
20 % va 15 % katta yukda
25 % va 20 % katta yukda
Nominal yukda

№ 191.

Yuk ko‘tarish kranlariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar bilimini takroriy tekshirish komissiya tomonidan qancha vaqtda bir marta o‘tkaziladi?
1 yilda kamida bir marta
2 yilda kamida bir marta
1 yilda kamida ikki marta
3 yilda kamida bir marta

№ 192.

Yuk ko‘tarish mexanizmlaridan xavfsiz foydalanish qoidalarini qaysi tashkilot ishlab chiqadi va tasdiqlaydi?
Davlat texnika nazorati qo‘mitasi
Davlat energetika nazorati qo‘mitasi
Davlat yong‘in nazorati qo‘mitasi
Davlat sanitariya nazorati qo‘mitasi

№ 193.

Yuk ko‘tarish mexanizmlari davriy guvohnomalashdan qanday muddatlarda o‘tkaziladi?
12 oyda bir marta
4 oyda bir marta
3 oyda bir marta
6 oyda bir marta

№ 194.

Yuk ko‘tarish kranlari qanday turdagi sinovlardan (tekshirishlardan) o‘tishi kerak?
Statik, dinamik
Texnik ko‘rik, statik sinov
Texnik ko‘rik, statik dinamik sinov
Statik, dinamik, gidravlik

№ 195.

Ishlab chiqarish sanitariyasining asosiy vazifasi nimadan iborat?

Ishlab chiqarishda ish sharoitining sanitar-gigiyena talablari darajasida bo'lishini ta'minlash.
Ishlab chiqarishda mehnat qonunlariga rioya qilinishini nazorat qilish
Ishlab chiqarishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni nazorat qilish
Ishlab chiqarishda yong'in xavfsizligini ta'minlash

№ 196.

Mehnat faoliyati jarayonida insonga ta'sir qiluvchi omillar yig'indisi nima?
Ishlab chiqarish muhiti
Maishiy muhit
Tabiiy muhit
Ekologik muhit

№ 197.

15 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan hodimlarga xavftasiga necha soat ish belgilanadi?
24 soat
36
40
15

№ 198.

16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan hodimlarga haftasiga necha soat ish belgilanadi?
36 soat
41 soat
24 soat
120 soat

№ 199.

Ishga qabul qilishdagi sinov muddati necha oy va u mehnat stajiga kiradimi?
3 oy, ha
3 oy dan 6 oy gacha, yo'q
3 oy, yo'q
3 oy, ayrim hollarda, kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda 6 oy, ha

№ 200.

Korxonada yaratilgan yo'riqnomalarni kim tasdiqlaydi?
Rahbar, bosh muhandis
Yuqori turgan xo'jalik rahbari
Korxonani kasaba uyushmasi yuqori turgan xo'jalik rahbari bilan
Mehnatni muhofaza qilish muhandisi

VII. GLOSSARIY

Abiotik omillar – iqlim, edofogen (mexanik tarkib, zichlik, tuproqning nam va havo o'tkazuvchanligi), orografik (relef, dengiz sathidan balandlik), ximik (havoning gaz tarkibi, tuproq tarkibi).

Adaptatsiya - ko'zning yorug'likda va qorong'ida ko'rishga moslashish qobiliyati, yoki organizmlarni o'rologik omillar ta'siriga moslashuv xususiyati.

Avariya - halokat mahsulot tayyorlashga ishlatiladigan mashinalar, jihozlar, texnologik tizimdagi uskunalar majmuasidagi nosozlik, elektr bilan ta'minlashdagi nosozlik, binolar, qurilmadagi nosozliklar tufayli vujudga keladigan vokea aytiladi.

Antropogen halokatlar (ta'sirlar)– insoniyatning xo'jalik faoliyati tufayli yuzaga keluvchi antropogen faktorlar ta'sirida biosferaning sifat jihatidan o'zgarishi va natijada insonlar hayotiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga hamda atrof-muhitga tahdid va katta xavf tug'diruvchi hodisalar.

Atmosfera elektr zaryadlari – kuchli yashin va momoqaldiraq vaqtida hosil bo'ladi. Bunda ularning kuchlanishi 2 V dan 8 mln V gacha, tok kuchi miqdori 200000 A gacha yetishi mumkin.

Biosfera – “bios” – hayot, “sfera” – shar ma'nosini bildirib, er yuzidagi barcha organizmlar tarqalgan va ular ta'siridagi hayot qobig'i tushiniladi.

Biogeosenoz – “bio” – hayot, “geo” – er, “senoz” – birlik degan ma'noni bildiradi.

Dinamik sinov-yuk ko'tarish mexanizmlari, tormozlar, ajratgichlar va harakatni cheklovchi moslamalar tekshiriladi. Sinov nominal yuk ko'tarish qobiliyatidan 10% ortiq bo'lgan yukda, yukni 300 mm balandlikka bir necha marta ko'tarib-tushirish o'tkaziladi. Barcha sinov natijalari dalolatnoma bilan hujjatlashtirilib, mexanizm pasportiga yoziladi.

Elektr xavfsizligi – insonlarni elektr toki, elektr yoyi, elektromagnit maydon va statik elektr tokidan himoyalashga qaratilgan tashkiliy va texnik tadbirlar hamda vositalar sistemasi.

Elektr tokining ta'sir turlari – kimyoviy, issiqlik va biologik.

Elektr toki ta'sirini belgilovchi faktorlar – tok kuchi va kuchlanishi miqdori, inson tanasining qarshiligi tok turi va chastotasi, tokni ta'sir etish vaqti, tokni o'tish yo'li va insonning shahsiy xususiyatlari.

Elektromagnit nurlar – ta'sirida markaziy nerv sistemasining faoliyati buziladi, bosh og'riydi, tanada umumiy horg'inlik, charchash sodir bo'ladi, uyqu keladi, puls va qon bosimi kamayadi.

Elektr qurilmalarini yerga ulash – qurilmaning elektr toki ta'sirida bo'lmagan metall qismini yerga ko'milgan maxsus elektrodlar (sun'iy yoki tabiiy)ga ulash.

Epitsentr – yer silkinishining, yer ustki qatlamining eng maksimal silkinishi joyi.

Epidemiya - yuqumli kasalliklarning biror o'lka, viloyatda yoki mamlakatda keng tarqalib ketishi. Bunda bemorlar soni odatdagidan 5-10 marta ko'p bo'ladi.

Epizootiya – hayvonlarning ommaviy tarzda kasallanishiga yoki nobud bo'lishiga olib keladigan vaziyat.

Epifitotiya – o‘simliklarning ommaviy nobud bo‘lishiga olib keladigan vaziyat.

Ergonomika - mehnat qonuniyatlari va ishchi jarayonlar haqidagi fanidir. Ergonomika tushunchasi grekcha “ish va qonun” degan so‘zlardan kelib chiqqan.

Favqulodda vaziyat – muayyan xududda o‘zidan so‘ng odamlarning qurbon bo‘lishi, odamlar sog‘lig‘i yoki atrof – tabiiy muhitga ziyon etkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar, hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan avariya, halokat, tabiiy ofat, epidemiya, epizotiya, epifitotiyalar natijasida yuzaga keladigan holat.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish - oldindan o‘tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfini imkon qabar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda holatlar (FH) – kutilmaganda, qo‘qqisdan sodir bo‘luvchi, aholining hayot faoliyatiga katta salbiy ta‘sir etuvchi, amalda o‘rnatilgan jarayonlar turg‘unligini buzilishiga, iqtisodga, sotsial sohaga va muhitga ta‘sir etuvchi holat va hodisalardir.

FHlarning kompleks belgilari – lokal, mahalliy, regional, milliy, global.

FHlarni yuzaga kelish sababiga ko‘ra turlari: tabiiy ofatlar, texnogen halokatlar, antropogen va ekologik halokatlar, sotsial-siyosiy va harbiy-siyosiy mojarolar.

Fuqaro muhofazasi – favqulodda vaziyatlarni, xalokatlarni oldini olish va ularni oqibatlarini bartaraf etish, aholini hududlarini va moddiy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlarni amalga oshiruvchi davlat tizimi.

FVDT kuchlari - favqulodda vaziyatlarda aholini va hududlarni muhofaza qilish funktsiyasiga ega bo‘lgan barcha davlat, mahalliy, ob'ekt tuzilmalari va bo‘linmalarining majmuidir.

Geologik havfli hodisalar – odamlar o‘limiga, ma‘muriy – ishlab chiqarish binolarini, texnologik asbob – uskunalarni, energiya taminoti, transport komunikatsyalari va infratuzilma tizimlarining, ijtimoiy yo‘nalishdagi binolarini va uy joylarini turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar xayot faoliyatining izdan chiqishiga olib keladi.

Gidrometerologik havfli hodisalar – odamlar o‘limiga, aholi yashash joylarini, bazi sanoat va qishloq xo‘jaligi obektlarini suv bosishiga, infratuzilma va transport komunikatsyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatini buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko‘chirish tadbirlari o‘tkazilishi talab qiladigan tabiiy ofatlardir.

Gipotsentr – yer silkinishining chuqur ichki qismidagi o‘chog‘i markazi.

Gomosfera – faoliyat davrida ishchi turadigan yoki harakat qiladigan joy, ishchi zona.

Hayot muhiti – organizmni o‘rab turuvchi va u bilan doimiy munosabatda bo‘ladigan tabiatning ma‘lum bir qismi.

Halokat (avariya) - ishlab chiqarish korxonasining hususiy energozaxirasini vayronali chiqarib yuborish; bunda xom ashyo, o'tkinchi mahsulotla, korxona mahsuloti va ishlab chiqarish chiqindisi, ishlab maydonchasida o'rnatilgan texnologik uskunalar halokatli jarayon tufayli aholi, xizmatchilar, insonlarni o'rab turgan muhit va ishlab chiqarish korxonasining o'zi uchun ham zararli faktor yaratishi tushuniladi

Himoya vositalari – ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan insonlarga zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarining ta'sirini kamaytirish yoki uni oldini olish uchun qo'llaniladigan vositalar majmui.

Identifikatsiya- hayot faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan oldini olish va tezkor tadbirlarni yaratishga zarur va yetarli bo'lgan sonli, vaqtinchalik, fazoviy va boshqa tavsiflarni topish va aniqlash jarayonini tushunamiz.

Immobilizatsiya qilish – singan suyakni o'rnidan siljitmasdan faner bo'laklari, qattiq karton qog'oz, yupqa taxta va boshqa vositalar yordamida qimirlamaydigan qilib bog'lashdir.

Insonning tabiiy analizatorlari-tabiiy sezgi a'zolari: ko'rish, eshitish, titrashni sezish, taktil analizatori (mehaniq ta'sirni sezish), haroratni sezish, og'riqni sezish, ta'm va hidni sezish, organik sezgi, harakat analizatori.

Ionlashtiruvchi nurlanish- radioaktiv parchalanishda, yadroviy yemirilishlarda, moddada zaryadlangan zarrachalar harakatlanishini sekinlashuvida hosil bo'ladigan hamda muhit bilan o'zaro ta'sir etish chog'ida har xil qutbli ionlarni hosil qiladigan nurlanish.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa – ishchi hizmatchilarni xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari ta'sirida sog'ligi va ish qobiliyatini bir kun va undan ortiq vaqtga yo'qotish holati.

Jarohatlanish ko'rsatkichlari – jarohatlanish chastotasi (K_{ch}), jarohat og'irligi (K_o), ish kunining yo'qotilishi (K_{ich}).

Kimyoviy xavf - kimyoviy moddalar va jarayonlar bilan bog'liq xavf. Kimyoviy xavfning asosiy shakllari, ko'rinishi quyidagilar: yong'in, portlash, toksik zaharlanish.

Klassifikatsiya prinsipi - bu xavf bilan bog'liq belgilariga qarab obyektlarni sinf va toifalarga bo'lishdan iborat.

Kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar (KTZM) - ma'lum miqdorda havoda yoki joylarda mumkin bo'lgan darajadagi kontsentratsiyadan yuqori bo'lib, insonlar, qishloq xo'jalik jonivorlar va madaniy o'simliklarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi, hamda ularni o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan kimyoviy moddalar.

Kuyish – termik, elektrik va kimyoviy ko'rinishlarda bo'ladi. Kuyish og'irlik holatiga ko'ra 4 darajaga bo'linadi: 1- darajali kuyishda teri qizarib shishadi; 2-darajali kuyishda suv pufaklari hosil bo'ladi; 3-darajali kuyishda teri jonsiz bo'lib, sezish qobiliyatini yo'qotadi; 4-darajali kuyishda teri qorayadi, muskullar va suyaklar shikastlanib qurib qoladi.

Kvantifikatsiya - murakkab tushunchalarning sifatini aniqlashda sonli tavsiflarni joriy qilishdir.

Muhandislik muhofazasi - favqulodda vaziyatlarning oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish, aholi va hududlarni muhofaza qilish, mamlakat iqtisodiyotiga yetadigan zararni kamaytirishga qaratilgan fuqaro muhofazasi muxandislik-texnik tadbirlarining majmui.

Noosfera – biosferaning inson tomonidan boshqariladigan yangi sifat holati, biosferaning oliy bosqichi.

Noksosfera – doimiy yoki davriy ravishda xavf sodir bo‘ladigan zona.

Nomenklatura - ma'lum belgilariga ko‘ra tizimlashtirilgan xavfli nom va so‘zlar ro‘yxatidir (alanga, buzilish, gaz, gerbitsid, dinamik zo‘riqish, yemirilish, yong‘in, zahar, zilzila, ifloslanish, kuyish, lat yemoq, loyqalanish, lazer nurlari, magnit maydoni va boshqalar).

Obyektning yonish xavfliligi-ob‘ektning yong‘in sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holati va yong‘inning oqibatlari.

Obyektning yong‘in xavfsizligi – ob‘ektning belgilangan me‘yorlar va talablar asosida ob‘ektda yong‘in sodir bo‘lish xavfi hamda uning xavfli va zararli faktorlarini inson hayotiga ta’siri cheklangan, ob‘ektdagi materiallar to‘liq himoyalangan holati.

Qon ketish – shikastlangan tomirlardan tashqariga qon chiqib turishi (oqishi) bo‘lib, jarohatlarni bevosita hayotga xavf soluvchi eng xatarli asoratlardan biridir.

Qutqaruvchi - muayyan dastur bo‘yicha qutqaruv ishlariga tayyorlanga va belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi.

Radiatsiyaviy avariya – uskuna nosozligi, xodimlarning xatti- harakatlari (harakatsizligi), tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tufayli kelib chiqqan, fuqarolarning belgilangan me‘yordan ko‘proq nurlanish olishga yoki atrof-muhitning radioaktiv ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yohud olib kelgan ionlashtiruvchi nurlanish manbai ustidan boshqaruvning izdan chiqishi.

Radiatsiyaviy xavfsizlik – fuqarolar va atrof-muhitning ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta’siridan muhofazalanganlik holati.

Reanimatsiya (jonlantirish) – organizmning muhim hayotiy funksiyalarini tiklash.

Shaxsiy himoya vositalari – (ShHV) ichki a’zolarga, teriga va kiyimga radiaktiv va zaharlovchi moddalar va bakteriyalar tushmasligini oldini olishga xizmat qiluvchi vositalar.

Shikastlanish o‘chog‘i – yuzaga kelgan favqulodda vaziyatning zararli va xavfli omillari ta’siri ostida joylashgan aholi, hayvonlar, bino-inshoatlar, moddiy resurslarning barchasi.

Smog – zaharli tuman, tutun aralashmasi hamda havoning harakatsiz turib qolgan holati.

Statik elektr toki - tuzilishi va tarkibi jihatidan bir xil bo'lmagan ikki materialni o'zaro ishqalanishi va ayrim suyuqlik yoki gazlarni quvirlarda katta tezlikda harakatlanishi oqibatida yuzaga keluvchi elektr zaryadlari.

Statik sinov-balka (to'sin) larning mustahkamligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Buning uchun ishchi yuk 200 mm. balandlikka ko'tarilib 10 minut ushlab turiladi, keyin esa yuk miqdori foydalanishdagi kranlar uchun 10% , yangi va kapital ta'mirlangan kranlar uchun 25 % oshiriladi hamda yuk ko'tarilgan holatda balkaning egilishi tekshiriladi.

Sun'iy nafas berish – “og'izdan-og'izga” yoki “og'izdan-burunga” berilishi mumkin. Sun'iy nafas berish chastotasi minutiga 10-12marta bo'lishi lozim.

Tabiiy ofat – tabiatda yuz beradigan favquloddagi o'zgarish bo'lib, u birdan, katta tezlikda insonlarning mo'tadil yashash, ishlash sharoitlarini buzilishi, odamlarning va qishloq xo'jalik xayvonlarining o'limi, moddiy boyliklarning buzilishi yoki yo'q bo'lib ketishi va boshqa salbiy oqibatlarga olib keluvchi hodisalardir.

Taksonomiya - xavfning kelib chiqish tabiati, turi, oqibatlari, tuzilishi, insonga ta'sir etishi va boshqa shu kabi belgilari asosida tasniflanib bir tizimga keltirilishi.

Tavakkal - xavflarni son jihatidan baholashdir. Sonli baholash- u yoki bu ko'ngilsiz oqibatlar sonining ma'lum davr ichida bo'lishi mumkin bo'lgan soniga nisbatidir. Tavakkal ijtimoiy va individual (yakka) turlarga bo'linadi.

Texnogen halokatlar – katta hududlarda portlash, yong'in, radiktiv, ximiyaviy va biologik zararlanishlarni keltirib chiqaruvchi, insonlar hayotiga xavf solib, guruhli o'limlarga olib keluvchi hamda ishlab chiqarish jarayonini keskin ishdan chiqishi bilan kechadigan hodisalar.

Tizim -elementlar majmuasi tushuniladi. Tizimning tashkil qiluvchilari (elementlari, qismlari) deganda nafaqat moddiy obyektlar tushunilmasdan, yana ular orasidagi o'zaro munosabatlar va bog'lanishlar.

Xavf – inson xayotiga va sog'lig'iga zarar keltirishi, yong'in, portlashlarni yuzaga keltirishi, zararli va zaharli moddalarni atrof – muhitga tarqalishi, bino – inshootlarning buzilishi, xududlarning suv bosishi va boshqa ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi.

Xavfsizlik – inson faoliyatining holati bo'lib, u muayyan ehtimollikda yuzaga keladigan xavflarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan xavflar majmui.

Xavfning nomenklaturasi-xavfning ma'lum bir belgilarga ko'ra tartibga solinib tizimlashtirilgan ro'yhati.

Xavfning kvantifikatsiyasi-xavfning sifat darajasi aniqlanib va baholanib unga sonli xarakteristika berilishi.

Xavfning identifikatsiyasi-xavfni va uning soniy hamda vaqtli ko'rsatkichlarini aniqlash jarayoni.

Xavfli va zararli faktorlar (fizikaviy, himiyaviy, biologik, psixifiziologik) – jarohatlanish, shikastlanish va kasallanishlarni keltirib chiqaruvchi vositalar hamda shart-sharoitlar.

Xavf turlari – real va yashirin.

Xavfli zonalalar – doimiy yoki vaqtincha xavfli faktorlar yuzaga keladigan joylar.

Xavfsizlikni ta'minlovchi vositalar – to'siqlar, saqlash qurilmalari, blokirovkalash moslamalari, tormozalar, signalizatsiya, masofadan boshqarish vositalari va xavfsizlik belgilari sistemasi.

Xavfsiz elektr toki miqdori – 10mA gacha o'zgaruvchan va 50 mA gacha o'zgarmas tok.

Yer surilishi – tog' jinslari qatlamlarining qiya sath bo'ylab o'z og'irligi, gidrodinamik, gidrostatik va seysmik kuchlar ta'sirida pastlik tomon surilishi.

Yer yuzining tarkibi - 71% suv va 21% quruqlikdan iborat. **Yong'in** – bu maxsus manbadan tashqarida sodir bo'ladigan va katta material zarar hamda talofatlar keltirib chiqaradigan nazoratsiz yonish jarayonidir.

Yong'inga qarshi himoya sistemasi – yong'inni xavfli faktorlarini insonga ta'sirini bartaraf etishga va yong'in vaqtida material zararlar miqdorini cheklashga qaratilgan tashkiliy tadbirlar va texnik vositalar majmui.

Yong'inni tarqalishini oldini olish sistemasi – yong'inni bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga o'tkazishni cheklashga qaratilgan tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

Yurak-o'pka reanimatsiyasi – insonning klinik o'lim holatidan qayta jonlantirish uchun nafas oldirish va yurakni bilvosita uqalash tadbirlarining majmui.

Yuqori bosimli isitish qurilmasi - suvning sirkulyatsiyalanishini mehanik usulda nasoslar yordamida amalga oshiriladi. Suvning harorati isitish jihozlariga 120-135⁰C gacha yetadi.

VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
- A.Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Bernan Press. Germaniya, 2007.
9. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./ Darslik. –T.: “Tafakkur qanoti”, 2015. – 336 b.
10. E.I. Ibragimov, S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.

11. Yuldashev O.R., Djabborova Sh.G., Xasanova O.T. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik–T.:“Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
12. Хамидуллаев Ф.Ф., Шамансуров С.С., Шадиева К.И. Правовые и организационные основы охраны труда. –Т.:, 2022. – 287 с.
13. Tursunov Y., Usmanova M. Mehnat huquqi. Darslik - Toshkent, “Moliya”, 2006, 227-b.
14. A'zamov A., va boshqalar. Mehnatni muhofazasi qilish./ O'quv qo'llanma. –T.: “Sano-standart”, 2013. – 232 b.
15. Narziyev Sh.M., Kurbonov Sh.X. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma–T.:“Yangi nashr”, 2019.– 234 b.
16. Петросова Л.И. Охрана труда. Учебник. –Т.:, 2022. –385 с.
17. Charles D. Reese. Occupational Safety and Health Fundamental Principles and Philosophies. CRC Press. 2017.
18. Петросова Л.И. Охрана труда и техника безопасности по отраслям. Учебник. -Т.: 2023. 230 с.

III. Maxsus adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. – 46 b.
1. “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi (yangi taxriri) O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.
 2. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori № 286, 06.06.1997, –T.: 1997.
 3. “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida”gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 , 37-38-son.
 4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори “Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2018 йил 31 декабрь, 1066-сон.
 5. Петросова Л.И. Охрана труда. Учебно- методическое пособие. ТашГТУ. 2020. 180 с.

IV. Internet saytlar:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.mintrud.uz – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
4. www.bilim.uz – OUMTV sayti.